Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 17 ball olishi mumkin.

5-MSTI

Mavzu: Ikki va uch xonali sonlarni qoshish va ayirishning turli usullari.

Maqsad: O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish, misol va masalalarni yechish.

A). Nazorat ishi

1-variant

1. *Masala.* Bir sinf 6 ta ko'chatdan 3 qator, boshqa sinf 8 ta ko'chatdan 3 qator ko'chat ekishdi. O'quvchilar hammasi bo'lib nechta ko'chat ekishdi?

2. *Misollar.* $300+150$ $85+15$ 6×8
 $670-320$ $78-29$ $56:7$

3. *Vazifa.* 3 ta kesma chizing: birinchisining uzunligi 8 sm, ikkinchisi undan 2 marta kichik, uchinchisi 3 sm uzun bo'lsin.

2-variant

1. *Masala.* Oshxonaga og'irligi 10 kg bo'lgan 3 xalta un va og'irligi 5 kg. bo'lgan 4 xalta guruch keltirildi. Oshxonaga keltirilgan hamma oziq-ovqatning og'irligi qancha?

2. *Misollar.* $500+340$ $74+26$ $60-(7 \times 5)$ $790-250$
 $83-37$ $(63:9) \times 8$

3. *Vazifa.* 3 ta kesma chizing: birinchisining uzunligi 3 sm, ikkinchisi undan 2 marta uzun, uchinchisi ikkinchisidan 1 sm uzun bo'lsin.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Masala. 1. Shartlarni to'g'ri tashkil qilish — 1 ball

2. To'g'ri yo'l bilan yechgani uchun (1 b x 3 amal) — 3 ball

3. Aniq hisob (1 b x 3) — 3 ball

4. To'g'ri atalishiga — 1 ball

Misollar. Har bir misolni to'g'ri yechishiga
(1 baldan x 6 ta) — 6 ball

Geometrik vazifa:

1. Uchta kesmani to'g'ri chizish (1 baldan x 3) — 3 ball

2. Aniq hisob (1b x 2) — 2 ball

3. Chiroyli yozuvga — 1 ball

Jami — 20 ball

Ushbu tekshiruv ishida 20 BKM elementi mavjud bo'lib, 5-MSTning SRB — 20 balga teng.

B). 5-MSTga qo'shimcha topshiriq

a) Tenglamani yechilishi.

1-qator $32: x = 4$ $x+13=7$

2-qator $x: 7 = 5$ $x-23=60$

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Noma'lum sonni to'g'ri topgani uchun (1 baldan x 2 ta) — 2 ball

2. Tekshirishni to'g'ri bajargani uchun (1 baldan x 2 ta) — 2 ball

Jami: 4 amal x 1 baldan — 4 ball.

5-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 qo'shimcha ball(QB) qo'yiladi.

6-MSTI

Mavzu: Og'irlik. 3 xonali sonlarni qo'shish va ayirish.

Maqsad: 3 xonali sonlarni qo'shish va ayirishni bilishini tekshirish.

A). Nazorat ishi

1-variant

1. *Masala.* Birinchi kuni 200 nafar o'quvchi sirkka kirdi, ikkinchi kuni birinchi kunga qaraganda 107 nafar ko'p o'quvchi, uchinchi kuni esa 68 nafar kam o'quvchi sirkka kirdi. Uchinchi kuni sirkka necha nafar o'quvchi kirdi?

2. *Misollar.* $310 + 250$ $780 + 120$ $72: 9$

$250 + 270$ $890 - 600$ 8×3

3. *Taqqoslashga oid vazifa.* $2t * 200kg$ $30s * 3t$ $900g * 1kg$ $500kg * 6s$

2 variant

1. *Masala.* Birinchi kitob 150 bet, ikkinchi kitob birinchi kitobdan 30 bet kam, uchinchi kitob esa ikkinchi kitobdan 110 bet kam. Uchinchi kitobda necha bet bor?

2. *Misollar.* $510+207$ $970 - 330$ $36: 4$

$370+240$ $650-400$ 9×7

3. *Taqqoslashga oid vazifa.* $3t * 300kg$ $50s * 5t$ $800g*2kg$ $700kg * 8s$

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Shartlarni to'g'ri tashkil qilish — 1 ball

2. To'g'ri yo'l bilan yechgani uchun ($1 b \times 2amal$) — 2 ball

3. Aniq hisob ($1 b \times 2$) — 2 ball

4. To'g'ri atalishiga — 1 ball

Misollar. Har bir misolni to'g'ri yechish

($1 baldan \times 6 ta$) — 6 ball

Taqqoslashga oid vazifa. ($< > =$)

Har bir beigini to'g'ri qo'yishi ($1 b \times 4$) — 4 ball

Chiroyll yozuvga — 1 ball

Jami — **17 ball**

Ushbu tekshiruv ishida 17 BKM elementi mavjud bo'lib, 6-MSTning SRB 17 balga teng.

B). 6-MSTlga qo'shimch topsbirlq

1. Vazifa

1-variant.

1-qator

$$2t = * \text{ kg}$$

$$800\text{kg} = * \text{ gr}$$

$$4 \text{ t } 200 \text{ kg} = * \text{ kg}$$

2-qator

$$5 \text{ kg } 300\text{g} = * \text{ g}$$

$$8000 \text{ g} = * \text{ kg}$$

$$1 \text{ kg} = * \text{ g}$$

2-variant.

2. Tenglama.

1-qator

$$x: 9 = 9;$$

$$6 \times X = 54;$$

2-qator

$$7 \times X = 49$$

$$63: X = 7$$

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Kerakli o'lchov birliklarini topgani uchun

(1 baldan x 3 el)

— 3 ball

2. Tenglama. Noma'lum sonni topgani uchun

(1 b x 2 ta)

— 2 ball

3. Tekshirishni to'g'ri bajargani uchun (1 b x 2 ta)

— 2 ball

Jami

— 7 ball

6-MSTlning qo'shimcha topshirig'i uchun 7 qo'shimcha ball(QB) qo'yiladi.

7-MSTI

Mavzu: Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish, kopaytirish va bo'lish.

Maqsad: O'quvchllar bilimini nazorat qilish.

A). Matematik diktant

1. 9 va 7 raqamlarini hosil qilish usullarini toping.

2. 20 ni 6 ta orttiring.

3. 6 ni 9 marta ko'paytirish orqali orttiring.

4. 24 soni 8 dan necha marta ko'p?

5. 218 ga qo'shni bo'lgan sonlarni yozing.

6. Bir dona daftar uchun 50 so'm to'landi. 4 ta daftar uchun qancha to'lash kerak?

7. Tenglamani og'zaki yeching va javobini yozing. $X \times 5 = 25$;

$32: X = 8$; $X + 30 = 75$.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Ko'paytirish amallarini to'g'ri topgani uchun

— 1 ball

2. Sonlarning umumiy yig'indisini to'g'ri topgani uchun

— 1 ball

3. Hosil qilish usullarini bilgani uchun	— 1 ball
4. Sonlarni to'g'ri taqqoslagani uchun	— 1 ball
5. Sonlarni tartibini to'g'ri bilgani uchun – 2 amal	— 2 ball
6. Masalani to'g'ri yechgani uchun	— 1 ball
7. Tenglamani yechish – 1 b x 3 amal	— 3 ball
8. Tekshirilishi — 1 b x 3 amal	— 3 ball
9. Chiroyli yozuv uchun	— 1 ball
Jami	— 14 ball

Ushbu tekshiruv ishida 14 BKM elementi mavjud bo'lib, 7-MSTning SRB 14 balga teng.

8-MSTI

Mavzu: 3 xonali sonlarni qo'shish va ayirish usullari.

Maqsad: O'quvchilarning qo'shish va ayirishga oid misollarni ustun shaklida to'g'ri yecha olishini tekshirish.

A).

1-variant

1. *Masala.* Musobaqalarda birinchi komanda 40 ochko to'pladi. Ikkinchi komanda esa 2 o'yin uchun 16 ochkodan to'pladi. Ikkala komanda hammasi bo'lib necha ochko to'plagan?

2. *Misollar.* $371 + 259;$ $405 - 118;$ $54: 7;$
 $800 - 237;$ $508 + 349;$ $9 \times 8.$

3. *Tenglama.* $X + 203 = 594$ $641 - x = 325$

4. *Geometrik vazifa:* Bo'yi 5 sm, eni 3 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni chizing. Perimetrini toping.

2-variant

1. *Masala.* O'quvchilar bog'da 60 kg nok, 15 kgdan 3 chelak olma terishdi. O'quvchilar hammasi bo'lib necha kg meva yig'ishdi?

2. *Misollar.* $481 + 347;$ $705 - 216;$ $63: 9;$
 $900 - 581;$ $602 + 259;$ $7 \times 6.$

3. *Tenglama.* $320 + x = 675$ $x - 320 = 243$

4. *Geometrik vazifa:* Bo'yi 6 sm, eni 4 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni chizing. Perimetrini toping.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

<i>Masala.</i> 1. Shartlarning to'g'ri tahlil etilishiga	— 1 ball
2. To'g'ri yo'l bilan yechish (1 b x 2 amal)	— 2 ball
3. Aniqlik hisob uchun (1 b x 2 amal)	— 2 ball

4. To'g'ri atalishiga	— 1 ball
<i>Misolalar.</i> Har bir amalni to'g'ri bajarganligi uchun (1 balidan x 6 amal)	— 6 ball
<i>Tenglama.</i> 1. Noma'lum sonni topgani uchun ($1 b \times 2 t$)	— 2 ball
2. Tekshirishni to'g'ri bajargani uchun ($1 b \times 2 t$)	— 2 ball
<i>Geometrik vazifa.</i> 1. To'g'ri chizgani uchun	— 1 ball
3. Aniq hisob ($1 b \times 3 amal$)	— 3 ball
4. To'g'ri javob	— 1 ball
Chiroyli yozuviga	— 1 ball
Jami	— 22 ball

Ushbu tekshiruv ishida 22 BKM elementi mavjud bo'lib, 8-MSTning SRB 22 balga teng.

B). 8-MSTga qo'shimcha topshiriq

Masala. 1-variant. 3 yashik nokning og'irligi 30 kg. 5 ta yashikda necha kg nok bor?

2-variant. 4 ta qutida 40 bo'lak bo'r bor. 6 ta qutida necha bo'lak bo'r bor?

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

<i>Masala.</i> 1. Shartlarning to'g'ri tahlil etilishiga	— 1 ball
2. To'g'ri yo'l bilan yechish – ($1 b \times 2$)	— 2 ball
3. Aniq hisob uchun – ($1 b \times 2$)	— 2 ball
4. To'g'ri atalishiga	— 1 ball
Jami 6 amalga	— 6 ball

8-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 6 qo'shimcha ball(QB) qo'yiladi.

9-MSTI

Mavzu: O'tilgan mavzularni takrorlash.

Maqsad: II chorak bo'yicha o'tilgan mavzular asosida o'quvchilarning bilim malakasini tekshirish.

A). Test sinovi

✓ *Barcha tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni toping.*

a) to'rtburchak; b) kvadrat; d) uchburchak.

2. *To'g'ri javobni top* ($54+27$):9

a) 8; b) 9; d) 7.

3. *Masalani to'g'ri ishlash yo'lini toping. Bir olma daraxtidan 36 kg,*

ikkinchisidan 24 kg olma terildi. Yashiklarga hammasini 6 kg dan joylashtirilsa, necha yashik kerak bo'ladi?

a) $(36+24):6$; b) $(36-24):6$; d) $36:6+24$.

4. Noma'lum sonni top. $X-55=45$

a) 10; b) 100; d) 1000.

5. 30 sonigacha bo'lgan sonlarning 7 ga bo'linadigan eng katta soni qaysi?

a) 27; b) 28; d) 29.

6. 72 dan 8 necha marta kichik?

a) 5 marta; b) 8 marta; d) 9 marta.

7. Tomonlari 5 sm bo'lgan kvadratning perimetrini toping.

a) 25 sm; b) 30 sm; d) 20 sm.

8. Biror ob'ektning masshtabini topish uchun, uning o'lchovlari qanday o'zgaradi?

a) bir necha marta kattalashadi; b) bir necha marta kichiklashadi;
d) o'zgarmay qoladi.

9. Uzunligi 24 sm bo'lgan kesmaning uchdan bir bo'lagini toping.

a) 8 sm; b) 9 sm; d) 7 sm.

10. Agar biror sonni 0 ga ko'paytirsak, nima hosil bo'ladi?

a) ko'paytirilgan son hosil bo'ladi; b) 0; d) 1.

11. To'g'ri belgini qo'y. $2\text{ t } 300\text{ kg} \times 2\text{ t } 300\text{ s}$

a) $>$; b) $<$; d) $=$.

12. To'g'ri javobni top. $63: 7 + 40: 8$

a) 14; b) 13; d) 15.

13. 2 sutkada necha soat bor?

a) 47 ; b) 44; d) 48.

14. Tomonlari 5 sm, 4 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.

a) 18; b) 20; d) 17.

15. 3 km necha metr?

a) 300m; b) 3000 m; d) 30000 m.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 15 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 15 BKM elementi mavjud bo'lib, 9-MSTning SRB 15 ballga teng.

**Matematika fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTilar,
3-sinf, III chorak**

No	Mavzular	S/s	TI SRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	1000 ichida ko'paytirish va bo'lish	1		618-625	626-627	
2.	$0 \times A=0$, $1 \times A = A$ ko'rin. mis. yech.	1		628-635	636-637	
3.	$0 \times A=0$, $1 \times A= A$ ko'rin. mis. yech.	1		638-645	646-647	
4.	$A \times 1=A$, $A \times 0 = 0$ ko'rin. mis. yech.	1		648-655	656-657	
5.	$A: =A$ ko'rin. mis. yech.	1		658-665	666-667	
6.	$0: A = 0$ ko'rin. mis. yech.	1		668-675	676-677	
7.	$0: A = 0$ ko'rin. mis. yech.	1		678-686	687-688	
8.	$A: A=1$, $A:1 = A$ ko'rin. mis. yech.	1		689-695	696-697	
9.	$A: A=1$, $A:1 = A$ ko'rin. mis. yech.	1		698-705	706-707	
10.	Qo'shimcha mashqlar	1		1-6	7-8	
11.	10-MSTI. Nazorat ishi	1	19			
12.	$4 \times 10=40$; $6 \times 10 =60$; $4 \times 100=400$; $6 \times 100 = 600$ ko'rin. mis. yech.	1		708-714	715-716	
13.	$3 \times 10=30$; $30:10=3$; $9 \times 100=900$; $900: 100=9$ ko'rin. mis. yech.	1		717-723	724-725	
14.	<u>$90:9=100$</u> $90\text{'nl}:9 = 1\text{ o'nl}$ <u>$600: 6 =100$</u> $6\text{yuzl}: 6 = 1\text{yuzl}$ ko'rin. mis. yech.	1		726-729	730-731	

15.	20 x 3, 3 x 20, 60:3, 100:2 ko'rin. mis. yech.	1		732-739	740-741	
16.	80 x 3 8 o'nl x 3 = 24o'nl; 80 x 3 = 240; 240:4 ; 24o'nl:4 = 6o'nl; 240:4 = 60 ko'rin. mis. yech.	1		742-749	750-751	
✓ 17.	Kvadrat	1		752-758	759-760	
18.	90:30 ko'rin. mis. yech.	1		761-767	768-769	
19.	Qo'shimcha mashqlar	1		1-8	9-10	
20.	11-MSTI. Nazorat ishi	1	19			
21.	12: (3 x 2) = 12: 6 = 2 sonni ko'p. bo'lish	1		770-777	778-779	
22.	90: 30 ketma-ket bo'lish usuli	1		780-787	788-789	
23.	(4+3) x 2. Yig'indini songa ko'paytirish	1		790-796	797-798	
24.	Misol va masalalarni yechish	1		799-809	810-811	
25.	23 x 4 ko'rin. mis. yech.	1		812-818	819-820	13
26.	4 x 23; 2 x 45 ko'rin. mis. yech.	1		821-828	829-830	16
27.	7 x (3 x 5) ko'rin. mis. yech.	1		831-837	838-839	
28.	Jadvalga qarab masala- lar tuzing	1		840-845	846-847	
29.	a+b 47+34=81 ko'rin. mis. yech.	1		848-855	856-857	
✓ 30.	12-MSTI. Nazorat ishi	2	21			20-13
31.	Shakl qismlari yuzlarini hisoblang	1		858-865	866-867	24

32.	260 x 3 ko'rin. mis. yech.	1		868-874	875-877	
33.	Misol va masalarni yechish	1		878-883	884-885	
34.	Qo'shimcha mashqlar	1		868-893	894-895	
35.	Vaqt birliklari	1		1-5	6-7	
36.	Sekund	1		896-902	903-904	
37.	Sekund: 1 sutka 24 soatdan iborat	1		905-913	914-915	
38.	Vaqt birliklari	1		916-923	924-925	
39.	Masofani aniqlang	1		926-933	934-935	
40.	13-MSTI. Matematik diktant	1	11	936-942	943-944	
41.	Asr. 1 asr = 100 yil	1		945-952	953-954	
42.	Asr	1		955-961	962-963	
43.	Qo'shimcha mashqlar	1		1-14	15-16	
44.	Yig'indini songa bo'lish (8+6):2	1		964-971	972-973	
45.	(15+21):6 ko'rin. mis. yech.	1		974-981	982-983	
46.	39: 3 ko'rin. mis. yech.	1		984-991	992-993	
47.	Nur	1		994-1000	1001-1002	
48.	14-MSTI. Test	2	15			
	Jami	50	85			

**3-sinfda matematika fanidan III chorak uchun BKM elementlari soni
va standart reyting balini hisobga olish jadvali
(haftasiga 5, chorakda 50 soat)**

MSTI tartib raqami	10-MSTI	11-MSTI	12-MSTI	13-MSTI	14-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	11-dars	20-dars	30-dars	40-dars	48-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Nazorat ishi	Nazorat ishi	Nazorat ishi	Nazorat ishi	Test	

Bajarish vaqti (minut)	40	40	20	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	19	19	21	10	15	84
Tekshiruv ishining standart bali	19	19	21	11	15	85
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	4	5	4	-	-	13

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 3-sinfda matematika fanidan III chorak uchun 84 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 84 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 85 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 13 ball olishi mumkin.

10-MSTI ✓

Mavzu: Ko'paytirish va bo'llsh.

Maqsad: O'quvchilarning ko'paytirish va bo'lishga oid misol va masalalarni yechish darajasini tekshirish.

A). Nazorat ishi

1-qator

1. **Masala.** Umida 12kg olma va undan 4 marta kam nok sotib oldi. Umida mecha kg meva sotib olgan?

2. **Misollar.** $5:5 \quad 34 \times 0 \quad (15-8):1$
 $4:1 \quad 0:15 \quad (4+5):0$

3. **Vazifa.** $0:6 \times 0 \times 5 \quad 0:5 \times 0+5 \quad 3 \times 1 \times 3+1 \quad 5:0 \times 0 \times 5$

2-qator

1. **Masala.** Maktab oshxonasiga 21 kg karam, undan 3 marta kam sabzi keltirildi. Oshxonaga hammasi bo'lib necha kg sabzavot keltirildi?

2. **Misollar.** $6:6 \quad 61 \times 0 \quad (13-6):1$

$3:1 \quad 0:20 \quad (3+4) \times 0$

3. **Vazifa.** $0:7 \times 0 \times 6 \quad 0:6 \times 0+6 \quad 4 \times 1 \times 4+1 \quad 6:0 \times 0 \times 6$

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|----------|
| Masala.1. Shartlarni to'g'ri tashkil qilish | — 1 ball |
| 2. To'g'ri yo'l bilan yechgani uchun (1b x 2 amal) | — 2 ball |
| 3. Aniq hisob (1b x 2) | — 2 ball |
| 4. To'g'ri atalishiga | — 1 ball |

Misollar. Har bir misolni to'g'ri yechish	-1 balдан x 8ta	— 8 ball
Taqqoslashga oid vazifa (< > =)		
Har bir belgini to'g'ri qo'yish		— 4 ball
Chiroyli yozuviga		— 1 ball
Jami		—19 ball

Ushbu tekshiruv ishida 19 BKM elementi mavjud bo'lib, 10-MSTning SRB 19 balga teng.

B). 10-MSTga qo'shimcha topshiriq

1-qator. $X + 15 = 75;$ $X \times 9 = 63;$

2-qator. $X - 14 = 26;$ $X : 6 = 9.$

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Noma'lum sonni to'g'ri topgani uchun	— 2 ball
2. Tekshirishni to'g'ri bajargani uchun	— 2 ball
Jami	— 4 ball

10-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 qo'shimcha ball(QB) qo'yiladi.

11-MSTI ✓

Mavzu: Jadvallardan tashqari ko'paytirish va bo'llish.

Maqsad: O'quvchilarning jadvaldan tashqari ko'paytirish va bo'llish bilim, ko'nikmalarini tekshirish.

A). Nazorat ishi

1-qator

1. *Masala.* O'quvchilar do'konida 6ta o'yinchoq sotildi va unda sotilgandan 10 marta ortiq o'yinchoq qoldi. Do'konda nechta o'yinchoq bo'lgan?

2. *Misollar.* 600: 100; 100: 10 x 5; 1000: 10; 70: 10; 5: 5 x 10; 900: 30.

3. *Tenglama.* $X: 10 = 15 - 6;$ $4 \times X = 4 \times 10.$

2-qator ✓

1. *Masala.* Avtobusdan 3 nafar yo'lovchi tushdi va unda tushganlardan 10 marta ortiq yo'lovchi qoldi. Avtobusda necha yo'lovchi bo'lgan?

2. *Misollar.* 900: 100; 100: 10 x 7; 1000: 50; 90: 10; 4: 4 x 10; 600: 30.

3. *Tenglama.* $5 \times X = 5 \times 10;$ $X: 10 = 5 + 3.$

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

<i>Masala.</i> 1. Shartlarning to'g'ri tashkil etilishiga	— 1 ball
2. To'g'ri yo'l bilan yechish	— 2 ball

- | | |
|--|----------|
| 3. Aniq hisob uchun | – 2 ball |
| 4. To'g'ri atalishiga | – 1 ball |
| Misollar. Har bir amalni to'g'ri bajargani uchun – 1 balddan | – 8 ball |
| Tenglama. 1. Noma'lum sonni topgani uchun | – 2 ball |
| 2. Tekshirishni to'g'ri bajargani uchun | – 2 ball |
| Chiroyli yozuviga | – 1 ball |

Jami – **19 ball**

Ushbu tekshiruv ishida 19 BKM elementi mavjud bo'lib, 11-MSTning SRB 19 ballga teng.

B). 11-MSTlga qo'shimcha topshiriq

1-qator. Geometrik vazifa.

Bo'yi 6sm, eni 4sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni chizing. Perimetrini toping.

2-qator. Bo'yi 4sm eni 7sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni chizing. Perimetrini toping.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | | |
|-------------------|---------------------------|----------|
| Geometrik vazifa. | 1. To'g'ri chizgani uchun | – 1 ball |
| | 2. Aniq hisob | – 3 ball |
| | 3. To'g'ri javob | – 1 ball |

Jami: – **5 ball**

11-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 5 qo'shimcha ball(QB) qo'yiladi.

12-MSTI

Mavzu: Sonni ko'paytmaga bo'lish.

Maqsad: O'quvchilarning sonni ko'paytmaga bo'lish amallarini to'g'ri bajarish darajasini tekshirish.

A). Nazorat ishi

1-qator

1. *Masala.* O'quvchilar har biri 30 kgdan 3 savat olma terishdi, ularni 9ta qutiga joylashtirishdi. Har bir qutida necha kg olma bor?

2. *Misollar.* $320:(10 \times 8)$; $27: 9 + 0 \times 2$; $300:(10 \times 3)$; $3 \times (22 + 8)$.

3. *Vazifa.* Uchta kesma chizing: birinchisining uzunligi – 10 sm, ikkinchisi birinchisidan 5 marta qisqa, uchinchisi ikkinchisidan 4sm uzun bo'lish.

2-qator

1. *Masala.* Kutubxonaga har birida 40 ta kitob bo'lgan 2 ta quti keltirildi, kitoblarni 8ta javonga joylashtirishdi. Har bir javonda nechta kitob bor.
2. *Misollar.* $270: (9 \times 10)$; $4 \times (18 - 9)$; $200: (20 \times 10)$; $63: 9 + 6 \times 7$
3. *Vazifa.* Uchta kesma chizing: birinchisining uzunligi 9sm, ikkinchisi birinchisidan 3 marta qisqa, uchinchisi ikkinchisidan 5 sm uzun bo'lsin.

Tekshirillshi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Shartlarni to'g'ri tashkil qilish — 1 ball
 2. To'g'ri yo'l bilan yechgani uchun — 2 ball
 3. Aniq hisob — 2 ball
 4. To'g'ri atalishiga — 1 ball
- Misollar.* Har bir misolni to'g'ri yechish – $(1b \times 9 \text{ el})$ — 9 ball
- Geometrik vazifa.*
1. Uchta kesmani to'g'ri chizish — 3 ball
 2. Aniq hisob — 2 ball
- Chiroyli yozuviga — 1ball
- Jami** — **21 ball**

Ushbu tekshiruv ishida 21 BKM elementi mavjud bo'lib, 12-MSTning SRB 21 ballga teng.

B). 12-MSTlga qo'simcha topshiriq

1-qator

Agar 1m gazlama 100 so'm tursa, 600 so'mga necha metr gazlama sotib olish mumkin?

2-qator

1 kg nok 200 so'm tursa, 1000 so'mga necha kg nok sotib olish mumkin?

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- Masala.*
1. Shartlarning to'g'ri tashkil etilishiga — 1 ball
 2. To'g'ri yo'ldan yechish — 1 ball
 3. Aniq hisob uchun — 1 ball
 4. To'g'ri atalishiga — 1 ball
- Jami** — **4 ball**

12-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 qo'shimcha ball(QB) qo'yiladi.

13-MSTI

Mavzu: Vaqt birliklari.

Maqsad: O'quvchilarning bilimini nazorat qilish.

Matematik diktant

1. 56 soni 7 dan necha marta katta?
2. 10 soni 90 dan necha birlik kichik?
3. 2 so'm 30 tiyinda necha tiyin bor?
4. 2 soat 10 minutda necha minut bor?
5. 8 hafta – necha kundan iborat?
6. 5 minutda necha sekund bor?
7. Do'konda 500 kg olma bor edi, uning beshdan bir qismi sotildi. Necha kg olma sotilgan?
8. Taqqoslang: 15 soat va yarim sutka?

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Bo'lish amalini to'g'ri topgani uchun | – 1 ball |
| 2. Ayirish usulini to'g'ri bajargani uchun | – 1 ball |
| 3. Hosil qilish usulini bilgani uchun 1×2 | – 2 ball |
| 4. Vaqt birliklarini to'g'ri bilgani uchun | – 2 ball |
| 5. Vaqt birliklarini to'g'ri hisoblagani uchun | – 1 ball |
| 6. Vaqt birliklarini to'g'ri bilgani uchun | – 1 ball |
| 7. Masalani to'g'ri yechgani uchun | – 1 ball |
| 8. Sonlarni to'g'ri taqqoslagani uchun | – 1 ball |
| 9. Chiroyli yozuvi uchun | – 1 ball |
| Jami | – 11 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 10 BKM elementlari mavjud bo'lib, 13-MSTning SRB 11 balga teng.

14-MSTI

Mavzu: O'tilgan mavzularni takrorlash.

Maqsad: III chorak bo'yicha o'tilgan mavzular asosida o'quvchilarning bilim malakasini tekshirish.

A). Test sinovi

1. 8 asrda necha yil bor?
a) 8 yil; b) 80 yil; **c) 800 yil.**
2. To'g'ri javobni toping: $770 - 70:10$
a) 700; **b) 763;** d) 70.
3. Masalaning to'g'ri ishlash yo'lini toping.

Kitob 45 betli. O'quvchi kitobning beshdan 1 qismini o'qidi. O'quvchi kitobning necha betini o'qidi?

a) 45:5; b) 45:1; d) 45 +5.

4. Noma'lum sonni toping. $X \times 5 = 35 - 5$

a) 7; b) 6; d) 5.

5. To'g'ri belgini qo'ying: $2 \text{ asr} \times 190 \text{ yil}$

a) <; b) >; d) =.

6. Quyidagi shaklda nechta to'rtburchak bor?



a) 4ta; b) 5ta; d) 9ta.

7. Tomohlari 4dm bo'lgan kvadratning perimetrini toping.

a) 8dm; b) 16dm; d) 4dm.

8. To'g'ri javobini toping 180: 9

a) 18; b) 21; d) 20.

9. 10kv dm nechta sm bo'ladi?

a) 100 kv sm; b) 1000 kv sm; d) 10 kv dm.

10. 60 sonigacha bo'lgan sonlarning 9ga bo'linadigan eng katta soni qaysi?

a) 54; b) 56; d) 59.

11. Qaysi oy 30 kundan iborat?

a) mart; b) aprel; d) may.

12. Masalaning to'g'ri javobini toping.

Do'konga 7kg.li yashiklarda 42kg. anor va 5kg.li yashiklarda shuncha yashik behi keltirildi. Do'konga qancha behi keltirilgan?

a) 7; b) 6; d) 30.

13. Agar $a=0$ bo'lsa $a+1 \times 0$ ifodaning qiymati nechta bo'ladi?

a) 1; b) 0; d) a.

14. Agar noma'lum songa 1 qo'shilsa, eng kichik to'rt xonali son hosil bo'ladi.

Noma'lum sonni toping.

a) 1000; b) 999; d) 1001.

15. Al-Xorazmiy hind hisobiga nechta raqam kiritgan?

a) 10; b) 1; d) 2.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami —15 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 15 BKM elementlari mavjud bo'lib, 14-MSTning SRB 15 balga teng.

**Matematika fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTilar,
3-sinf, IV chorak**

No	Mavzular	S/s	MSTI (b)	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	42: 3 ko'rinishdagi misollarni yech.	1		1003-1009	1010-1011	
2.	72: 3 ko'rinishdagi misollarni yech.	1		1012-1018	1019-1020	
3.	70: 2, 100: 4 ko'rin. misol yechish	1		1021-1028	1029-1030	
4.	Qo'shimcha mashqlar	1		1-10	11	
5.	Ko'paytirish va bo'lishni tekshirish	1		1031-1038	1039-1040	
6.	Ko'paytirish va bo'lishni tekshirish	1		1041-1048	1049-1050	
7.	Ko'paytirish va bo'lishni tekshirish	1		1051-1058	1059-1060	
8.	Misol va masalalarni yechish	1		1061-1068	1069-1070	
9.	42: 3 ko'rinishidagi misollarni yech.	1		1071-1078	1079-1080	
10.	99: 33 ko'rinishidagi misollarni yech.	1		1081-1088	1089-1090	
11.	Qo'shimcha mashqlar	1		1-12	13-14	
12.	15-MSTI. Nazorat ishi	1	15			
13.	Qoldiqli bo'lish	1		1091-1097	1098-1099	
14.	Qoldiqli bo'lish	1		1100-1106	1107-1108	
15.	47: 7 ko'rinishidagi misoliarni yech.	1		1119-1115	1116-1117	
16.	32: 9 ko'rinishidagi misollarni yech.	1		1118-1124	1125-1126	
17.	Qoldiqli bo'lishni bajarish	1		1127-1134	1135-1136	

✓ 18.	Qoldiqli bo'lishni bajarish	1		1137-1143	1144-1145	
✓ 19.	Misol va masalalarni yechish	1		1146-1153	1154-1155	
✓ 20.	Qoldiqli misollarni yechish	1		1156-1163	1164-1165	
3 ✓ 21.	Qo'shimcha mashqlar	1		1-10	11-12	
4 ✓ 22.	16-MSTI. <i>2/5</i> Nazorat ishi	1	27			
23.	Yozma ko'paytirish va bo'lish	1		1166-1172	1173-1174	
24.	$26 \times 3 = 78$, $347 \times 2 = 694$ ko'rinishidagi misollarni yech.	1		1175-1181	1182-1183-1184	
25.	$32 \times 4 = 128$, $182 \times 3 = 546$ ko'rin misol yechish	1		1185-1190	1191-1192	
26.	$3 \times 6 = 6 \times 3$ o'rinl. almash. b-n hisobl.	1		1193-1202	1203	
27.	Misol va masalalarni yechish	1		1204-1210	1211-1212	
✓ 28.	Ko'paytirish va bo'lish	1		1213-1219	1220-1221	
✓ 29.	17-MSTI. Matematik diktant	1	12	1222-1229	1230-1231	
30.	Qoldiqli bo'lish	1		1232-1239	1240-1241	
31.	Misol ustun qilib yozish	1		1242-1248	1249-1250	
32.	$978 : 3$ ko'rinishidagi misollarni yech.	1		1251-1257	1258-1259	
33.	Misol va masala yechish	1		1260-1266	1267-1268	
34.	$159 : 3$ ko'rinishidagi misollarni yech.	1		1269-1276	1277-1278	
35.	Bo'lishni tekshir b-n yechish.	1		1279-1286	1287-1288	
36.	Misollarni yechish tush. yech.	1		1289-1296	1297-1298	

37.	Takrorlash	1		1299-1306	1307-1308	
38.	18-MSTI. Test	1	15			
39.	Mustahkamlash	2		1309-1315	1316-1317	
	Jami	40	69			

**3-sinfda matematika fanidan IV chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali
(haftasiga 5, chorakda 40 soat)**

MSTI tartib raqami	15-MSTI	16-MSTI	17-MSTI	18-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	8- dars	15-dars	24-dars	37-dars	4 darsda
MSTI o'tkazish shakli	Nazorat ishi	Nazorat ishi	Nazorat ishi	Test	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	15	27	12	15	69
Tekshiruv ishining standart bali	15	27	12	15	69
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	4	5	-	-	9

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 3-sinfda matematika fanidan IV chorak uchun 69 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 69 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 69 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 9 ball olishi mumkin.

15-MSTI

Mavzu: Ko'paytirish va bo'lishni tekshirish.

Maqsad: Ko'paytirish va bo'lishni bilishlarini tekshirish.

A). Nazorat ishi

1-variant

1. Bo'lishni ko'paytirish bilan tekshiring.

Misol: 88: 22 = 68: 34 = 18 x 4 = 64: 16 =
57: 19 = , 47 : 2 =

2. *Masala*: 8 ta bir xll bidonga 40 litr kerosin sig'adi. Shunday 9 ta bidonga necha litr kerosin sig'adi?

3. *Taqqoslashga oid vazifa*. $2 \text{ t} * 200 \text{ kg}$ $40 \text{ s} * 5 \text{ t}$ $1000 \text{ g} * 1 \text{ kg}$

2-variant

1. *Masala*. Birinchisi 64 betli, ikkinchisi undan 27 bet ortiq kitob bor. Har ikki kitobda necha bet bor?

2. *Misollar*. Bo'lishni ko'paytirish bilan tekshiring.

92: 23 80: 16 $12 * 6$ 52: 26 72: 18

$37 * 2$

3. *Taqqoslashga oid vazifa*. 4 soat * 260 minut;

$10 \text{ kg} * 1000 \text{ g}$; $50 \text{ s} * 5 \text{ t}$; $700 \text{ kg} * 1 \text{ t}$.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Misollar. Har bir misolni to'g'ri yechish (1 b x 6 b) — 6 ball

Masala. 1. Shartlarni to'g'ri tashkil qilish — 1 ball

2. To'g'ri yo'l bilan yechgani uchun (1 b x 2 amal) — 2 ball

3. To'g'ri atalishiga — 1 ball

4. Taqqoslashga oid vazifa ($<$ $>$ $=$)

Har bir belgini to'g'ri qo'yishi (1 b x 4) — 4 ball

5. Chiroyli yozuviga — 1 ball

Ushbu tekshiruv ishida 15 BKM elementi mavjud bo'lib, 15-MSTning SRB 15 balga teng.

B). 15-MSTga qo'shimcha topshiriq

1-variant. Tenglama. $x: 3 = 9$ $X * 7 = 63$

2-variant. Tenglama. $x: 9 = 3$ $X * 4 = 32$

Jami — 4 ball.

15-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 qo'shimcha ball(QB) qo'yiladi.

16-MST ✓

Mavzu: Qoldiqli bo'lish.

Maqsad: Qoldiqli bo'lishni bo'lishlarini tekshirish.

A). Nazorat ishi

1-variant

1. *Masala*. Bir bolaning 12 ta 5 so'mlik tangasi bor edi. U pulga 4 so'mlik narsadan nechtasini sotib olishi mumkin?

2. *Misollar*. Qoldiqli bo'lishni bajaring.

$40: 6 =$ $25: 4 =$ $23: 7 =$ $30: 4 =$

3. *Amallarni bajaring.*

$$81:9+203-176 = \quad 720-91:7 \times 4 = \quad 64:8+437-209 = \quad 633-24:3:2 =$$

4. *Taqqoslang.* $81:9 \cdot 72:9$ $5.6 \cdot 14 + 16$ $24.3 \cdot 16.4$ $8.2 \cdot 16 - 4$

2-variant ✓

1. *Masala.* Bir bolaning 15 ta 5 so'mlik tangasi bor. U puliga 3 so'mlik narsadan nechtasini sotib olishi mumkin?

2. *Goldiqli bo'lishni bajaring.*

$$38:9 = \quad 26:5 = \quad 44:7 = \quad 39:6 =$$

3. *Amallarni bajaring.*

$$593+3 \times 7 - 384 = \quad 96:3+488-256 =$$

$$342+6 \times 8 - 276 = \quad 17 \times 4 + 293 - 164 =$$

4. *Taqqoslang.*

$$56:7 \cdot 64:8 \quad 8.6 \cdot 56 - 9 \quad 81:9 \cdot 63:9 \quad 4.5 \cdot 16 + 14$$

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|---|-----------|
| 1. <i>Misollar.</i> Har bir misolni to'g'ri yechish (1 b x 4) | — 4 ball |
| 2. <i>Masala.</i> 1. Shartlarni to'g'ri tashkil qilish | — 1 ball |
| 2. To'g'ri yo'l bilan yechgani uchun (1 b x 2) | — 2 ball |
| 3. Aniq hisob (1 b x 2) | — 2 ball |
| 4. To'g'ri atallshiga | — 1 ball |
| 5. Amallarni bajaring (1 b x 12) | — 12 ball |
| 6. Taqqoslashga oid vazifa ($<$ $>$ $=$) | |
| Har bir belgini to'g'ri qo'yishi (1 b x 4) | — 4 ball |
| 7. Chiroyli yozuviga | — 1 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 27 BKM elementlari mavjud bo'lib, 16-MSTning SRB 27 ballga teng.

B). 16-MSTlga qo'shimcha topshiriq

Vazifa. **1-variant.** 4 smli kvadratning perimetrini toping.

2-variant. 3 smli kvadratning perimetrini toping.

Jami — 5 ball.

16-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 5 qo'shimcha ball(QB) qo'yiladi.

17-MSTI

Mavzu: Bir xonali songa ko'paytirish.

Maqsad: O'quvchilarning bilimini nazorat qilish.

A). Matematik diktant

1. Bir xonali songa ko'paytirish qanday bajariladi?
2. Kitob 220 so'm turadi. 3 ta shunday kitob qancha turadi?

3. Taqqoslang: 5 m 08 sm. kattami yoki 5 m. 8 dm. kattami?
4. 60 sonining $\frac{1}{4}$ qismi nechaga teng.
5. Tenglamaning javobini toping $21:x=7$
6. Sonning to'rtidan bir qismi 214 ga teng. Shu sonni toping.
7. Avtobus chiptasi 30 so'm turadi. 210 so'mga nechta chipta olish mumkin?
8. 5 m necha dm ga teng.
9. 726 ga qo'shni bo'lgan sonlarni yozing.
10. 17 ni 8 marta orttiring.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|---|-----------------|
| 1. Ko'paytirish tartibini to'g'ri topgani uchun | — 1 ball |
| 2. Masalani to'g'ri yechgani uchun | — 1 ball |
| 3. Sonlarni to'g'ri taqqoslagani uchun | — 1 ball |
| 4. $\frac{1}{4}$ qismini to'g'ri topgani uchun | — 1 ball |
| 5. Tenglamani to'g'ri yechgani uchun | — 1 ball |
| 6. Ko'paytirish amallni to'g'ri bajargani uchun | — 1 ball |
| 7. Masalani to'g'ri yechgani uchun | — 1 ball |
| 8. O'lchov birliklarini to'g'ri topgani uchun | — 1 ball |
| 9. Sonlarning tartibini to'g'ri bilgani uchun | 2 amal — 2 ball |
| 10. Hosil qilish usullarini bilgani uchun | — 1 ball |
| 11. Chiroyll yozuv uchun | — 1 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 12 BKM elementi mavjud bo'lib, 17-MSTning SRB 12 ballga teng.

18-MSTI

Mavzu: O'tilgan mavzularni takrorlash.

Maqsad: IV chorak bo'yicha o'tilgan mavzular asosida o'quvchilarning bilim malakasini tekshirish.

A). Test sinovi

1. Noma'lum sonni top. $X:7=9$
a) 72; b) 63; d) 54.
2. To'g'ri javobni top. $668:8$
a) 167; b) 176; d) 168.
3. 885 dan 177 necha marta kichik
a) 6; b) 7; d) 5.
4. Tomonlari 6 sm bo'lgan kvadratning perimetrini toping.
a) 24; b) 20; d) 26.

5. 4 sutkada necha soat bor
a) 90; b) 96; d) 92
6. To'g'ri javobni top. $(318+153) \times 2$
a) 940; b) 941; d) 942.
7. To'g'ri javobni top. $(752-598) \times 2$
a) 462; b) 464; d) 466.
8. To'g'ri belgini go'y. 1 km 300 m x 1400 m
a) >; b) <; d) =.
9. To'g'ri javobni top. $784:7$
a) 110; b) 111; d) 112.
10. 805 va 575 sonlari ayirmasini 5 marta kamaytiring.
a) 23; b) 46; d) 45.
11. 900 va 420 sonlari ayirmasini 8 marta kamaytiring.
a) 60; b) 70; d) 80.
12. Noma'lum sonni top. $X \times 5 = 100$
a) 40; b) 30; d) 20.
13. 5 km da necha metr bor?
a) 500; b) 5000; d) 50.
14. Qoldiqni top. $76:8$
a) 4; b) 6; d) 8.
15. Qoldiqni top. $88:9$
a) 6; b) 7; d) 8.

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.
Jami — 15 ball.

**Ushbu tekshiruv ishida 15 BKM elementi mavjud bo'lib,
18-MSTning SRB 15 ballga teng.**

TABIATSHUNOSLIK

3-sinfda tabiatshunoslik fanidan o'quv yili uchun o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakaierini aniqlashda SRBni hisobga olish jadvali (haftasiga 1, o'quv yilida 34 soat)

Choraklar	I	II	III	IV	Yillik
MSTI soni	3	2	3	2	10
O'tkazish vaqti (minut)					
BKM elementlari soni	35	25	35	25	120
Tekshiruv ishining standart bali	35	25	35	25	120
Qo'shimcha topshiriq bali	6	4	8	4	22

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 3-sinfda tabiatshunoslik fanidan o'quv yili uchun 120 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Yillik standart reyting bali 120 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 120 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 22 ball olishi mumkin.

Tabiatshunoslik fanidan kaiendar mavzuviy ish reja va MSTilar, 3-sinf, I chorak

№	Mavzular	S/s	MSTI (b)	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Tabiat nima?	1		5-11	5-11	
2.	Havo, suv, foydali qazilmalar	1		11-16	11-16	
3.	Suv	1		17-16	17-26	

4.	1-MSTI	1	10			
5.	Foydali qazilmani muhofoza qilish	1		27-29	27-29	
6.	Qum va gil	1		30-32	30-32	
7.	2-MSTI	1	10	33-35	33-35	
8.	Kalsitlar	1		36-40	36-40	
9.	3-MSTI	1	15			
	Jami	9	35			

**3-sinfda tabiatshunoslik fanidan I chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali
(haftasiga 1, chorakda 9 soat)**

MSTI tartib raqami	1-MSTI	2-MSTI	3-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	4-dars	7-dars	9-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Test	Savol javob	Test	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	40	
Tekshirish iozim bo'lgan BKM elementlari soni	10	10	15	35
Tekshruv ishining standart bali	10	10	15	35
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	2	2	2	6

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 3-sinfda tabiatshunoslik fanidan I chorak uchun 35 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 35 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 35 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 6 ball olishi mumkin.

1-MSTI

Mavzu: Tabiatdagi o'zaro bog'liqlik tizimi.

Maqsad: Bilim ko'nikmalarini tekshirish.

A). Test

1. *Tabiatni o'rganadigan fan qanday ataladi?*

a) botanika; b) zoologiya; d) tabiatshunoslik.

2. *Jonli tabiatga qaysi kirmaydi?*

a) daraxtlar; b) odamlar; d) havo.

3. *Tabiatshunoslikda eng muhim narsa nima?*

a) o'qish; b) kuzatish; d) yozish.

4. *Tabiatda jismlar qanday bo'ladi?*

a) qattiq va suyuq; b) suyuq va gazsimon; d) qattiq, suyuq va gazsimon.

5. *Havoda suv bormi?*

a) bor; b) yoq; d) bilmayman.

6. *Havo qaysi holatda kengayadi?*

a) isiganda; b) sovutilganda; d) havo kengaymaydi.

7. *Issiq va sovuq havoning almashib turishi nima deb ataladi?*

a) kun va tun; b) shamol; d) temperatura.

8. *Suv necha holatda bo'ladi?*

a) 2; b) 3; d) 1.

9. *Tabiatda qanaqa suv ko'p?*

a) sho'r suv; b) chuchuk suv; d) muz suvi.

10. *Gazsimon suv nima?*

a) yomg'ir; b) qor; d) bug'.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 10 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 1-MSTning SRB 10 ballga teng.

B). 1-MSTiga qo'shimcha topshiriq

1. Nima uchun dengizlar suvga to'llib ketmaydi?

2. Shamol qanday hosil bo'ladi?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 2 ball.

1-MSTning qo'shimcha topshirig'iga 2 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

2-MSTI

Mavzu: Foydali qazilmalar.

Maqsad: O'quvchilarning foydali qazilmalarni bilish darajasini tekshirish.

A). Savollar

1. O'zbekistonda granit qayerdan olinadi?

2. Yer qa'rida, yoki yer yuzasida foydali qazilmalar joylashgan yerlar nima deb ataladi?

3. Foydali qazilmalar deb nimalarga aytiladi?
4. Gil qumdan nimasi bilan farq qiladi?
5. Oyna va shishalar nimadan olinadi?
6. Qum konlari qayerlarda bo'ladi?
7. O'zbekistonda qanday gil qazib chiqariladi?
8. Sopol idishlar nimadan tayyorlanadi?
9. Foydali qazilmalar konini qayta tiklab bo'ladimi?
10. Qum va gildan xalq xo'jaligida qanday foydalaniladi?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 10 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 10ta BKM elementi mavjud bo'lib, 2-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 2-MSTlga qo'shimcha topshiriq

1. Kimlarni foydali qazimalar topuvchi deb ataymiz?
2. Slyuda nima?

Har bir to'g'ri javob ushun 1 baldan.

Jami — 2 ball.

2-MSTning qo'shimcha topshirig'iga 2 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

3-MSTI

Mavzu: Tabiat jismlari.

Maqsad: Bilim ko'nikmalarini tekshirish.

A). Test

1. *Muz va qor nima?*
a) qattiq holatdagi suv; b) suyuq holatdagi suv; d) gazsimon holatdagi suv.
2. *Qanday haroratda suv muzga aylanadi?*
a) 38°; b) 0° va undan past; d) 1°.
3. *Nima mayin va egiluvchan bo'ladi?*
a) qum; b) tosh; d) gil.
4. *O'zbekistonda qanday kalsitlar bor?*
a) ohak tosh va marmar tosh; b) qum va gil; d) suv va havo.
5. *Kalsitlarning eng yumshog'i nima?*
a) bo'r; b) ohak tosh; d) marmar tosh.
6. *Kalsitlarning eng qattig'i nima?*
a) oxak tosh; b) toshko'mir; d) marmar tosh.
7. *Metro qurilishida kalsitlarning qaysi biri ishlatiladi?*
a) qum va gil; b) marmar tosh; d) toshko'mir.
8. *Samarqand viloyatida qanday marmar tosh qazib olinadi?*
a) pushti rang marmar tosh; b) oppoq marmar tosh; d) qora rang. marmar

9. Temir rudasidan cho'yan eritib olishda nima qo'llanadi?

a) gaz; b) koks; d) neft .

10. Toshko'mirning asosiy xossasi nima?

a) yonish xususiyati; b) qoraytirish xususiyati; d) mo'rtlik xususiyati.

11. Ko'mirlarni ochiq usulda qazib olinadigan joylar nima deb ataladi?

a) shaxta; b) karyer; d) kon.

12. Qanday jismlar shaklsiz bo'ladi?

a) suyuq jism; b) qattiq jism d) suyuq va gazsimon jism.

13. Havoning asosiy xossalari nima?

a) shaffof, rangsiz, hidsiz; b) suyuq, qattiq; d) rangli, qattiq, gazsimon.

14. Noyob o'simlik va hayvonlar qanday kitobga kiritilgan?

a) "Qizil kitob"ga; b) tabiatshunoslik kitobiga; d) zoologiya kitobiga.

15. Jonli tabiat jonsiz tabiatdan nima bilan farq qiladi?

a) oziqlanadi, nafas oladi b) o'sadi, ko'payadi, nobud bo'ladi d) A va B
javobning ikkalasi ham

Har bir to'g'ri javob 1 balidan.

Jami — 15 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 15ta BKM elementi mavjud bo'lib, 3-MSTning SRB 15 ballga teng.

B). 3-MSTga qo'shimcha topshiriq

1. Suv qanday holatda kengayadi?

2. Cho'yan nimadan olinadi?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 balidan.

Jami — 2 ball.

3-MSTning qo'shimcha topshirig'iga 2 qo'shimcha bali (QB) qo'yiladi.

Tabiatshunoslik fanidan kalendar mavzuviy ish reja va MSTlar, 3-sinf, II chorak

No	Mavzular	S/s	TISRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Neft va tabiiy gaz	1		41-44	41-44	
2.	Tuproq	1		45-54	45-54	
3.	O'simlik va hayvonot olami	1		55-62	55-62	
4.	4-MSTI	1	10			
5.	O'simlikshunoslik	1		63-85	63-85	
6.	Bog'	1		86-107	86-107	
7.	5-MSTI	1	15			
	Jami	7	25			

**3-sinfda tabiatshunoslik fanidan II chorak uchun BKM
elementlari soni va standart reyting ballarini hisobga olish jadvali
(haftasiga 1, chorakda 7 soat)**

MSTI tartib raqami	4-MSTI	5-MSTI	SCHRB
MSTI o'tkazish muddati	4-dars	7-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Savol-javob	Test	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	10	15	25
Tekshiruv ishining standart bali	10	15	25
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	2	2	4

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 3-sinfda tabiatshunoslik fanidan II chorak uchun 25 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 25 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 25 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 4 ball olishi mumkin.

4-MSTI

Mavzu: Savol-javob (yozma ravishida).

Maqsad: Bilim, ko'nikmalarini tekshirish.

A). Savol-javob

1. Neft toshko'mirdan nima bilan farq qiladi?
2. Neftdan nima olinadi?
3. Gaz qanday rangda yonadi?
4. Barcha o'simliklarning hayotida tuproqdan boshqa yana nima zarur?
5. O'simliklar oziq moddalarni tuproqdan qanday oladi?
6. Chirindilar qanday hosil bo'ladi?
7. Nima uchun tuman, qor, tuz, shakar oq bo'lib ko'rinadi?
8. Qanday daraxt suvda cho'kadi?
9. Asalari chaqqanda qanday o'simlikning bargi qo'yiladi?
10. Ipak qurti qaysi daraxtning bargi bilan oziqlanadi?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 10 ball.

**Ushbu tekshiruv ishida 10ta BKM elementi mavjud bo'lib,
4-MSTining SRB 10 balga teng.**

B). 4-MSTIga qo'shimcha topshiriq

1. Tuproqda qanday tirik mavjudotlar yashaydi?
 2. Hayvonlar hayoti bilan o'simlik hayoti qanday bog'langan?
- Har bir to'g'ri javob uchun 1 balidan.
Jami — 2 ball.

4-MSTIning qo'shimcha topshirig'iga 2 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

5-MSTI

Mavzu: Test sinovi.

Maqsad: Bilim va malakalarini tekshirish.

A). Test sinovi

1. *Toshko'mir va neftdan qanday dori olinadi?*
a) ampesilin; b) aspirin; d) dimedrol.
2. *Qanday o'simliklardan bo'yoq ham olinadi?*
a) paxta; b) bug'doy; d) suv qalampir.
3. *Suvzamchining gullari qanday rangda bo'ladi?*
a) pushti; b) oq; d) sariq.
4. *Qayerda o'sadigan o'simliklarning ildizlari uzunchoq bo'ladi?*
a) nam yerlarda; b) quruq yerlarda; d) hamma erlarda.
5. *Tipratikan nima uchun ko'p ovqat yeydi?*
a) tanasiga ko'p moy to'plashi uchun;
b) ovqatni yaxshi ko'rgani uchun;
d) ov qilishni yaxshi ko'rgani uchun.
6. *Paxta qaysi o'simlikning mevasi?*
a) g'o'za; b) bug'doy; d) sholi.
7. *G'alla o'simliklariga kiruvchi o'simliklarni toping.*
a) g'o'za; b) makkajxori; d) qoqio't.
8. *Guruch nimadan olinadi?*
a) bug'doy; b) arpa; d) sholi.
9. *Sholi qayerda o'stiriladi?*
a) tog'da b) suvda d) o'rmonda
10. *Hasharot va kemiruvchilarga qarshi kurashda odamlarga qaysi qush yordam beradi?*
a) Chittak, yapaloq qush, sassiq popishak; b) qarg'a, musicha, hakka;
d) xo'roz, tovuq, g'oz.
11. *Birinchi bo'lib qaysi meva daraxti gullaydi?*
a) nok, behl, olma; b) o'rik, shaftoli, olcha; d) anjir, tut, anor.
12. *Manzarali o'simliklarga kiruvchi o'simliklarni toping.*
a) akatsiya; b) yantoq; d) chirmoviq.

13. Ipak nimadan olinadi?

a) paxtadan; b) pilladan; d) neftdan.

14. Ikki yillik o'simliklarga kiruvchi sabzavotlarni toping.

a) pomidor; b) piyoz; d) tarvuz.

15. O'simliklarga tushuvchi shirani qaysi qo'ng'iz quritadi.

a) oltin qo'ng'ir; b) vizildoq qo'ng'iz; d) kolorado ko'ng'izi.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementi nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 15 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 15 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 5-MSTning SRB 15 balga teng.

B). 5-MSTga qo'shimcha topshiriq

1. Qaysi o'simliklar bir yillik o'simlik deb ataladi?

2. Qaysi o'simliklar poliz ekinlariga kiradi?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 2 ball.

5-MSTning qo'shimcha topshirig'iga 2 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

**Tabiatshunoslik fanidan kalendar
mavzuvi ish reja va MSTilar. 3-sinf, III chorak**

No	Mavzular	S/s	MSTI(b)	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Hayvonlar hayoti	1		108-114	108-114	
2.	Odam kim?	1		115-125	115-125	
3.	6-MSTI	1	10			
4.	Yurak va qon	1		126-133	126-133	
5.	Ovqat hazm qilish organlari	1		134-143	134-143	
6.	7-MSTI	1	10			
7.	Nerv sistemasi	1		144-156	144-156	
8.	Chekishdan o'zingizni tiying	1		153-156	153-156	
9.	8-MSTI	2	15			
	Jami	10	35			

**3-sinfda tabiatshunoslik fanidan III chorak uchun BKM
elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali
(haftasiga 1, chorakda 10 soat)**

MSTI tartib raqami	6-MSTI	7-MSTI	8-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	3-dars	6-dars	9-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Test	Savol- javob	Test	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	10	10	15	35
Tekshiruv ishining standart ball	10	10	15	35
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	3	3	2	8

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 3-sinfda tabiatshunoslik fanidan III chorak uchun 35 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 35 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 35 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 8 ball olishi mumkin.

6-MSTI

Mavzu: Hayvonlar hayoti va odam tuzilishi.

Maqsad: O'quvchilarning ozlashtirish darajasini aniqlash.

A). Test sinovi

1. *O'simliklar bilan oziqlanadigan hayvonlar qanday ataladi?*

a) hamaxo'r hayvonlar; b) o'txor hayvonlar; d) yirtqich hayvonlar.

2. *Ayiq qaysi hayvonlar turiga kiradi?*

a) o'txor hayvon; b) hashortxo'r hayvon; d) hamaxo'r hayvon.

3. *Qaysi oziq zanjiri to'g'ri?*

a) o't – qurtlar – baqa – llon; b) o't - bo'ri – fil – sher; d) o't – qo'y – fil – timsoh.

4. *Hayvonlarni o'rganadigan fan nima deb ataladi?*

a) Botanika; b) gidrologiya; d) zoologiya.

5. *Sakkiz oyoqli hayvon qaysi?*

a) qurbaqa; b) o'rgimchaklar; d) toshbaqa.

6. *Toshbaqa qaysi hayvonlar turiga kiradi?*
a) yirtqich; b) sudralib yuruvchilar; d) baliqlar.
7. *Odamni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi asosiy narsa nima?*
a) aql-zaqovat; b) tashqi ko'rinish; d) oyoqlari.
8. *Odam tanasi nimalardan tashkil topgan?*
a) jun; b) organlar; d) qonlar.
9. *Odam tanasini boshdan oyoq qoplagan narsa nima?*
a) Soch; b) pat; d) teri.
- 10 *Gavda suyaklariga qaysi suyak kiradi?*
a) oyoq, qo'l; b) umurtqa; d) kalla

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 10 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 10 BKM elementi mavjud bo'lib, 6-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 6-MSTlga qo'shimcha topshiriq

Yirtqich hayvonlarni nima uchun muhofaza qilish kerak?

Odam hayotida teri qanday ahamiyatga ega?

Odam skeleti nimalardan tashkil topgan?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 3 ball.

6-MSTning qo'shimcha topshirig'iga 3 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

7-MSTI

Mavzu: Savol-javob (yozma ravishda).

Maqsad: Bilim, ko'nikmalarni tekshirish.

A). Yozma ish

1. Skeletni nimalar harakatga keltiradi?
2. Nima odam organlarini o'ziq moddalar va kislorod bilan ta'minlaydi?
3. Burun bo'shlig'i qanday vazifani bajaradi?
4. Odamning yuragi qayerda joylashgan?
5. Qon qanday modda?
6. Ovqat hazm qilish organlarini ayting?
7. Zararli moddalar odam organlaridan qanday chiqib ketadi?
8. Qaysi mahsulotda vitamin ko'proq bo'ladi?
9. Bir dona pashshada necha xil kasallik tarqatuvchi mikroblar bo'ladi?
10. Pashshalar qanday ko'payadi?

To'g'ri javoblar

1. Skeletni muskullar harakatga keltiradi.
2. Qon odam organlarini oziq moddalar va kislorod bilan ta'minlaydi.
3. Havoni ilitadi va chang mikroblardan tozalaydi.
4. Yurak ko'krak qafasida joylashgan.
5. Qon – bu och qizil rangli suyuqlikdir.
6. Og'iz bo'shlig'i, qizilo'ngach, oshqozon, ichaklar, jigar.
7. Teri, siydik, axlat orqali.
8. O'simlik mahsulotlarida.
9. 100 xil kasallik.
10. Tuxum qo'yadi, tuxumdan lichinkalar chiqadi, lichinka g'umbakka, g'umbak esa pashshaga aylanadi.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 10 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 10 BKM elementi mavjud bo'lib, 7-MSTI ning SRB 10 balga teng.

B). 7-MSTiga qo'shimcha topshiriq

Nima uchun chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilish mumkin emas?

Nafas olish uchun qanday havo kerak?

Bir kunda necha mahal ovqatlanish kerak?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball.

Jami — 3 ball.

7-MSTIning qo'shimcha topshirig'iga 3 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

8-MSTi

Mavzu: Test sinovi.

Maqsad: Bilim va malakalarini tekshirish.

A). Test sinovi

1. *Odamda nechta buyrak bor?*
a) 1 ta; b) 2 ta; d) 3 ta.
2. *Inson hayoti uchun zararli bo'lgan gazning nomi nima?*
a) karbonat angidrid; b) kislorod; d) uglerod.
3. *Sog'lom kishilarda tana harorati necha daraja atrofida bo'ladi?*
a) 35; b) 36; d) 37.
4. *Jigar odamning qaysi tarafida joylashgan?*
a) o'ng tomonda; b) chap tomonda; d) o'rtada.
5. *Sudralib yuruvchilarga kiruvchi hayvon qaysi?*
a) baqa; b) kaltakesak; d) fil.

6. *Zoologiya nimani o'rganadi?*
a) odamni; b) hayvonlarni; d) kaltakesakni.
7. *Oziq zanjiri nimadan boshlanadi?*
a) o'simlik; b) hashorat; d) hayvon.
8. *Qaysi hayvonning dumini uzilgandan so'ng o'sib chiqadi?*
a) bo'ri; b) tulki; d) kaltakesak.
9. *Chuvalchanglar qachon oziqlanadi?*
a) tongda; b) tushda; d) tunda.
10. *Tuproqni mineral tuzlar bilan boyituvchi hashorat?*
a) tillaqo'ng'iz; b) chuvaichang; d) chigirtka.
11. *Hashoratlar asosan necha oyoqli bo'ladi?*
a) 8ta; b) 4ta; d) 6ta.
12. *Muskullar suyakka nima yordamida birikadi?*
a) pay; b) teri; d) tomir.
13. *Nervlar nimaga o'xshaydi?*
a) ko'k ipga; b) oq yارقiroq ipga; d) qizil tomirga.
14. *Nerv sistemasi qayerdan boshlanib tarqalgan?*
a) yurakdan; b. kalla suyakdan; d) bosh va orga miyadan.
15. *Qaysi sezgi organi issiq va sovuqni farqlaydi?*
a) teri; b) burun; d) ko'z.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 balidan.

Jami — 15 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 15 BKM elementi mavjud bo'lib, 8-MSTI ning SRB 15 balga teng.

B). 8-MSTiga qo'shimcha topshiriq

1. Pashshalar qanday zarar yetkazadi?
2. Nerv sistemasi sog'lom bo'lishi uchun nima qilish kerak?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 b x 2 b, jami: 2 ball.

8-MSTining qo'shimcha topshirig'iga 2 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

Tabiatshunoslik fanidan kalendar mavzuly ish reja va MSTlar, 3-sinf, IV chorak

T/r	Mavzular	S/s	MSTI (b)	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Tabiat va inson bir-butun	1		157-58	157-58	

2.	Jonli tabiat bilan jonsiz tabiatning o'zaro bog'liqligi	1		159	159	
3.	Ko'zga ko'rinmas zanjir	1		160-163	160-163	
4.	9-MSTI.	1	10			
5.	Nima qanday himoyalanaadi?	1		163-165	163-165	
6.	Ekologik zanjirlar Ekologik halokat	1		166-169	166-169	
7.	Yosh avlod sog'lom, tetik va baquvvat bo'lib o'ssin.	1		170-171	170-171	
8.	10-MSTI. Test sinovi	1	15			
	Jami	8	25			

**3-sinf tabiatshunoslik fanidan IV chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting ballarini hisobga olish jadvali
(haftasiga 1, chorakda 8 soat)**

MSTI tartib raqami	9-MSTI	10-MSTI	ChSRB
MSTI o'tkazish muddati	4-dars	8-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Test	Test	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	10	15	25
TEKSHIRUV ISHLARI
TO‘PLAMI**

ONA TILI

**4-sinfda ona tili fanidan o'quv yili uchun
BKM elementlari soni va standart reyting ballarini hisobga
olish yillik jadvali
(haftasiga 5, o'quv yilida 170 soat)**

Choraklar	I	II	III	IV	Yillik
MSTI soni	6	5	5	4	20
O'tkazish vaqti (minut)	220	180	180	160	740
BKM elementlari soni	59	46	39	34	178
Tekshiruv ishining standart bali	73	65	55	48	241
Qo'shimcha topshiriq ball	19	21	19	9	68

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4 – sinfda ona tili fanidan o'quv yili uchun 178 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Yillik standart reyting bali 178 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting ball 241 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 68 ball olishi mumkin.

Ona tili fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTIlar, 4-sinf, I chorak

№ Mavzular	S/s	TI SRB	Uyga vazifa	Eslatma
1. Nutq o'stirish	1			
2. Gap	1		1-3 m	

3.	So'zlardan gaplar tuzish	1		4-5 m	
4.	Darak, so'roq gaplar	1		6-9 m	
5.	Darak, so'roq gaplar	1		10-11 m	
6.	Undov gaplar	1		12-15 m	
7.	Mustahkamlash	1		16-19 m	
8.	1-MSTI. Diktant	1	10 ball		
9.	Diktant tahlili	1			
10.	Ega, kesim	1		20-25 m	
11.	Ikkinchi darajali bo'laklar	1		26-28 m	
12.	Gaplarda so'zlar-ning bog'lanishi	1		29-32 m	
13.	Gap, matn, nutq	1		33-35 m	
14.	Gap, matn, nutq	1		36-40 m	
15.	2-MSTI. Insho	1	18 ball	42-m	
16.	Tovush va harflar	1		43-46m	
17.	Unli tovushlar	1		47-51 m	
18.	Undosh tovushlar	1		52-54 m	
19.	b, d undoshi	1		55-56 m	
20.	d, t undoshi	1		57-58 m	
21.	3-MSTI. Lug'at diktant	1	11 ball		
22.	Bo'g'in	1		59-61 m	
23.	Tutuq belgisi	1		62-63 m	
24.	Urg'u	1		64-65 m	
25.	Alifbo	1		66-69 m	
26.	sh, ch, ng harf birkmasi	1		70-74 m	
27.	4-MSTI. Test	1	10 ball		
28.	So'z tarkibi O'zakdosh so'zlar	1		75-78 m	
29.	So'z yasovchi qo'shimchalar	1		79-83 m	

30.	So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar	1		84-87 m	
31.	5-MSTI. Bayon	1	14 ball	88 m	
32.	So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar	1		89-92 m	
33.	So'z tarkibi	1		93-96 m	
34.	So'z tarkibi	1		97-99 m	
35.	So'z tarkibi	1		100-102 m	
36.	So'z tarkibi	1		103-106 m	
37.	So'z tarkibi	1		107-109 m	
38.	So'z tarkibi	1		110-112 m	
39.	6-MSTI. Diktant	1	10 ball		
40.	Diktant tablili	1			
41.	Ot. Umumiy tushuncha	1		113-115 m	
42.	Ot. Otlarning bosh harfda yozilishi	1		116-117 m	
43.	Ot	1		118-120 m	
44.	Mustahkamlash	1			
45.	Mustahkamlash	1			
	Jami	45	73		

**2-sinfda ona tili fanidan I chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting ballni hisobga olish jadvali
(haftasiga 5 soat, chorakda 45 soat)**

MSTI tartib raqami	1-MSTI	2-MSTI	3-MSTI	4-MSTI	5-MSTI	6-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	9-dars	15-dars	21-dars	27-dars	31-dars	39-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Diktant	Insho	Lug'at diktant	Test	Bayon	Diktant	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	20	40	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	7	14	11	10	11	6	59

Tekshiruv ishining standart bali	10	18	11	10	14	10	73
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	3		3	8		5	19

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4 – sinfda ona tili fanidan 1 chorak uchun 59 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 59 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 73 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 19 ball olishi mumkin.

1-MSTI

Mavzu: Diktant.

Maqsad: Gapning mazmun jihatdan turlarini aniqlash.

A). Qarg'a va Zog'cha (60 so'z)

O'lkamizda kuz boshlandi. Siz gala-gala bo'lib uchib kelayotgan qushlarni taniysizmi? Bu qarg'a va zog'chalar. Ular dala va bog'larda yashaydilar. Nega? Chunki bu qushlar uchun qulaydir.

Yoz oylarida hashoratlar tuproqqa tuxum qo'yadilar. Xazon va chirindilar ichida bu tuxumlar g'umbakka aylanadi. Qarg'a va zog'chalar ana shularni terib yeydilar. Shudgorlangan yerlarni tozalab beradilar.

Bolalar, qarg'a va zog'chalarga ozor bermang! Ular –foydali qush.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1.Gaplarning bosh harflarda yozilishi (12 ta gap) — 3 ball

(1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b),

(1/2 qismidan kop bo'lsa — 0 b)

2. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi (13 ta)

(1ta imlo va 1ta tin. belg.)

— 3 ball

(1/2 xato uchun 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),

(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b)

3. Yozuvda darak, so'roq va buyruq gaplarning tinish belgilari — 3 ball

(1/2 ta xatoga —2 b), (2/3 ta xatoga — 1 b),

(2/3 tadan ortiq xatoga — 0 b)

5.Chiroyli yozuvga

— 1 ball

Jami

— 10 ball

Ushbu tekshiruv ishida 7 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 1-MSTining SRB 10 balga teng.

B). 1-MSTiga qo'shimcha topshiriq

1. 3 ta gap tuzing. (Darak, so'roq va undov gaplarga). Har bir gap uchun 1 balдан.

MSTI-1ning qo'shimcha topshirig'i uchun 3 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

2-MSTI

Mavzu: Insho(42-mashq asosida). "Sayohatchilar".

Maqsad: O'quvchilarning rasm asosida yozma nutqini rivojlantirish.

A). "Sayohatchilar"

Reja:

1. Tayyorgarlik.
2. Yo'lda.
3. Tog' manzarasi.
4. Dam olish.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|---|------------------|
| 1. Sayohatchilarga ism (5 kishi) tanlash va ularning to'g'ri yozilishi | — 5 ball |
| 2. O'z fikrini reja asosida ketma-ket bayon eta olishi(4ta) | — 4 ball |
| 3. So'zlarni to'g'ri qo'llash va lug'at boyligi | — 3 ball |
| 4. Gaplarni to'g'ri tuzish | — 3 ball |
| 5. Imlo va tinish belgilarinlng to'g'ri qo'yilishi
(1ta imlo va 1ta tin.belg.) | — 3 ball |
| (1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),
(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| Jami | — 18 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 14 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 2-MSTining SRB 18 balga teng.

3-MSTI

Mavzu: Lug'at asosida diktant.

Maqsad: Savodxonligini oshirish.

Ma'mura, yerto'la, harf, telefon, hikoya, yomg'ir, do'nglik, yelpig'ich, sa'va, ohang, gulxan.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Har bir to'g'ri yozilgan so'z uchun 1 balдан x10ta so'z | — 10 ball |
| 2. Chiroyli yozuv uchun | — 1 ball |
| Jami | — 11 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 11 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 3-MSTning SRB 11 balga teng.

B). 3-MSTiga qo'shimcha topshiriq

1. Do'nglik, telefon, yelpig'ich so'zlarini bo'g'inga ajrating.

Har bir so'z uchun 1 baldan.

3-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 3 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

4-MSTI

Mavzu: Test sinovi.

Maqsad: Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish.

A). Test savollari

1. So'zdagi bo'g'inlarni aniqlang. Ona, shaftoli.

a) 1,2; b) 2,3; d) 1,3.

2. So'zdagi -ng nechta tovushni ifodalaydi. Ko'ngil, singil.

a) 1; b) 2; d) 1, 2.

3. Yog'och, tajang so'zlarida nechta harf va nechta tovush bor.

a) 6, 5; b) 6, 6; d) 5, 6.

4. Gulchi, gulchilar, gulchilardan so'zlarida urg'u qaysi bo'g'inga tushgan.

a) birinchi; b) ikkinchi; d) oxirgi.

5. Klub, ozod so'zlaridagi oxirgi qaysi jarangli -b, -d undoshlari o'rniga qaysi jarangsiz undoshlar eshitiladi?

a) p, t; b) v, t; d) n.

6. Hunarman... do's... so'zlarining oxirida qaysi undosh aytilishda tushib qolgan?

a) d; b) d, t; d) t.

7. Alifbodagi D, K, T harflari nechanchi tartibda turadi?

a) 3, 10, 19; b) 3, 11, 18; d) 5, 12, 20.

8. Alifbodagi Y, O, U harflari nechanchi tartibda turadi?

a) 16, 21, 6; b) 14, 20, 4; d) 6, 16, 21.

9. Alifbodagi 24 -tartibdagi harfni toping.

a) j; b) t; d) z.

10. Yulduz so'zidagi harf va tovush sonini aniqlang.

a) 5, 4; b) 6, 6; d) 5, 5.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javobga 1 baldan.

Jami — 10 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 4-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 4-MSTlga qo'shimcha topshiriq

Tinchlik, ta'lim, kitobxon, quyosh so'zlarini bo'g'lga ajrating va urg'uli bo'g'inni belgilang.

- | | |
|--|-----------------|
| 1. Bo'g'inga ajratish, har bir zo'z uchun 1 balдан | — 4 ball |
| 2. Urg'uli bo'g'inni belgilash uchun 1 balдан | — 4 ball |
| Jami | — 8 ball |

4-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 8 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

5-MSTI

Mavzu: Bayon (88-mashq asosida).

A). Non lsi

Reja:

1. Husayn Boyqaroning buyrug'i.
2. Amaldorlarnig Navoiyga murojaati.
3. Dehqon boboning maslahati.
4. Podshoning mamnun bo'lgani.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|---|------------------|
| 1. Matn mazmunini reja asosida bayon eta bilish (4ta) | — 4 ball |
| 2. So'zlarni to'g'ri qo'llash va lug'at boyligi | — 2 ball |
| 3. Gaplarni to'g'ri tuzish | — 2 ball |
| 4. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash | — 2 ball |
| 5. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi
(1ta imlo va 1ta tin.belg.) | — 3 ball |
| (1/2 xato uchun -2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),
(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| 6. Chiroyli yozuviga | — 1 ball |
| Jami | — 14 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 11 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 5-MSTning SRB 14 balga teng.

6-MSTI

Mavzu: Diktant (Kitob –oftob).

Maqsad: So'z turkumlaridan ot haqidagi bilimlarini aniqlash.

A). Kitob — oftob

Biz kitobni juda sevamiz. Bo'sh vaqtimizda har xil ertak va hikoyalar o'qiymiz. Maktabimizda "Kitob-bilim manbai" mavzuida kitobxonlik kechasi bo'lib o'tdi.

Kechamiz ulug' bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 561 yilligiga bag'ishlandi. O'quvchilardan Gulchehra Nizomova, Ma'mura Bo'tayeva, Jamila Yo'ldosheva va Dilfuza Qurbonovalar Navoiy asarlaridan she'r va ruboiylar o'qib berdilar. Ayniqsa Jamila Yo'ldosheva juda ta'sirli o'qidi.

Kecha bizda katta taassurot qoldirdi.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Gaplarning bosh harflarda yozilishi (12 ta gap) — 3 ball

(1/3 qismiga xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b),

(1/2 qismidan kop bo'lsa — 0 b)

2. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi

(13 ta) (1 ta imlo va 1 ta tin.belg.) — 3 ball

(1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),

(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b)

3. Yozuvda darak, so'roq va buyruq gaplarning tinish belgilari

— 3 ball

(1/2 ta xatoga — 2 b), (2/3 ta xatoga — 1 b),

(2/3 tadan ortiq xatoga — 0 b)

5. Chiroyli yozuvga

— 1 ball

Jami

— 10 ball

Ushbu tekshiruv ishida 6 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 6-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 6-MSTga qo'shimcha topshiriq

1. Kishilarning ism va familiyalarini ko'chirib yozing.

Har bir to'g'ri yozilgan ism, familiya uchun 1 baldan — 5 ball.

6-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 5 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

Ona tili fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTlar, 4-sinf, II chorak

No	Mavzular	S/s	TISRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Otlarning egalik qo'shimchalar bilan qo'llanilishi	1		121-125	124	
2.	Egalik qo'shimchalalarining III shaxsda qo'llanilishi	1		126-130	129	
3.	Otlarda egalik qo'shimchalari	1		131-135	134	

4.	Mustahkamlash 7-MSTI. Lug'at diktant	1	13	136-140	140	
5.	Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi	1		141=144	144	
6.	Kelishik qo'shimchalari	1		145-147	147	
7.	Kelishik qo'shimchalari	1		148-152	152	
8.	Kelishik qo'shimchalari	1		153-156	156	
9.	Kelishik qo'shimchalari	1		157-158	158	
10.	Bosh kelishik	1		159-163	162	
11.	Qaratqich kelishigi	1		164-167	167	
12.	Qaratqich kelishigi	1		168-170	170	
13.	8-MSTI. Diktant	1	12			
14.	Tushum kelishigi	1		171-174	174	
15.	Tushum kelishigi	1		175-177	174	
16.	Jo'nalish kelishigi	1		178-181	181	
17.	Jo'nalish kelishigi	1		181-184	184	
18.	O'rin -payt kelishigi	1		185-188	187	
19.	O'rin -payt kelishigi	1		189-193	193	
20.	9-MSTI. Bayon	1	14			
21.	Chiqish kelishigi	1		194-197	197	
22.	Chiqish kelishigi	1		198-202	202	
23.	Mustahkamlash	1		203-207	207	
24.	10-MSTI. Test	1	10			
25.	Sifat	1		208-210	210	
26.	Sifat	1		211-215	215	
27.	Sifat (yam-yashil, qop-qora...kabi so'zlar)	1		216-219	219	
28.	Qarama-qarshi ma'noli sifatlar (oq-qora)	1		220-224	224	
29.	Sifat	1		225-228	228	
30.	Sifat	1		229-232	232	

31.	11-MSTI. Diktant	1	16			
32.	Mustahkamlash	1		234-235	236	
33.	Takrorlash	1		237-238	238	
34.	Son	1		239-243	243	
35.	Son	1		244-250	250	
	Jami	35	65			

**4-sinfda ona-tili fanidan II chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting ballarini hisobga olish jadvali
(haftasiga 5, chorakda 35 soat)**

MSTI tartib raqami	7-MSTI	8-MSTI	9-MSTI	10-MSTI	11-MSTI	SCHRB
MSTI o'tkazish muddati	4-dars	14-dars	20-dars	24-dars	31-dars	5-dars
MSTI o'tkazish shakli	Lug'at diktant	Diktant	Bayon	Test	Yakuniy diktant	
Bajarish vaqti (minut)	20	40	40	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	12	7	10	10	7	46
Tekshiruv ishining standart bali	13	12	14	10	16	65
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	2	2	-	6	11	21

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda ona tili fanidan II chorak uchun 46 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 46 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 65 baiga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 21 ball olishi mumkin.

7-MSTI

Mavzu: Lug'at asosida diktant.

Maqsad: Bolalarning savodxonligini tekshirish.

Musicha, kaptar, soch, radio, Umid, Turobjon, Samarqand, minnatdor, xabar, muhandis, telefon, san'at.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Har bir to'g'ri yozilgan so'z uchun 1 baldan (12 ta so'z) | — 12 ball |
| 2. Chiroyll yozuv uchun | — 1 ball |
| Jami | — 13 ball |

Ushbu tekshiruv ishlida 12 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 7-MSTning SRB 13 balga teng.

B). 7-MSTga qo'shimcha topshiriq

Musicha, xabar otlariga shaxs egalik qo'shimchalarini qo'yib yozing.

Har bir to'g'ri yozilgan so'z uchun 1 baldan x 2 ta so'z — 2 ball

7-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 2 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

8-MSTI

Mavzu: Diktant.

Maqsad: Qaratqich kelishigi qo'shimchalari haqidagi bilimlarini tekshirish.

A). Ziyrak

Komiljon anhor bo'ylab ketayotgan edi. Suvdan shipltllagan ovoz eshitildi. Komiljon yaqinlashib unga qaradi. U kichkina kuchukcha ekan. Kuchukcha harakat qilib suvdan chiqolmayotgan edi. Komiljonning unga rahmi keldi. U kuchukchani avaylab suvdan oldi. Kuchukcha titrar edi. Komiljon uni uyiga olib ketdi. Kuchukchani onasiga ko'rsatdi. So'ng issiq qilib o'rab, sut va non berdi. Kuchukchani ko'zlari ochildi. Komiljon o'z ishidan xursand bo'ldi. Unga Ziyrak deb nom qo'ydi. Ziyrak kundan-kunga katta bo'la boshladi.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Gaplarning bosh harflarda yozilishi (12 ta gap) | — 3 ball |
| (1/3 qismiga xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b), | |
| (1/2 qismidan kop bo'lsa — 0 b) | |
| 2. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi | |
| (13 ta) (1ta imlo va 1ta tin.belg.) | — 3 ball |
| (1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b), | |
| (2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b). | |
| 3. Kellshik qo'shimchasi bilan kelgan otlarning | |
| to'g'ri yozilishi | — 3 ball |
| (1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b), | |
| (2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| 4. Atoqli otlarning to'g'ri yozilishiga (2ta) | — 2 ball |
| 5. Chiroyll yozuvga | — 1 ball |
| Jami | — 12 ball |

9-MSTI

Mavzu: Bayon.

Maqsad: O'quvchilarning xotirasini rivojlantirish va yozma nutqini o'stirish.

A). Jasur askarlar

Reja:

1. Dovulning boshlanishi.
2. Dengizda qirg to'qqiz kun.
3. Tabiiy ofat bilan kurash.
4. Askarlarga yordam.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|---|-----------|
| 1. Matnni reja asosida bayon etish (4 ta rejaga — 1 balдан) | — 4 ball |
| 2. Matnni to'lliq ifoda qilish | — 1 ball |
| 3. Gaplarni to'g'ri tuzish | — 3 ball |
| 4. Lug'at boylligi | — 2 ball |
| 5. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi (13 ta) | — 3 ball |
| (1ta imlo va 1ta tin.belg.) | |
| (1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b), | |
| (2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| 6. Chiroyli yozuvga | — 1 ball |
| Jami | — 14 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 9-MSTning SRB 14 balga teng.

10-MSTI

Mavzu: Test.

Maqsad: Otlarning kelishik qo'shimchalarida turlanishi bo'yicha olgan bilimlarini tekshirish.

A). Test sinovi

1. Qaratqich kelishigining qo'shimchasini toping.
- a)-ni; b)-ga; d) -ning.

2. *Chiqish kelishigining qo'shimchsini toping.*
a) -da; b) -ga; d) -gan.
3. *Tushum kelishigi qo'shimchasini toping.*
a) -ni; b) -gan; d) -ning.
4. *O'rin-payt kelishigi qo'shimchsini toping.*
a) -da; b) -dan; d) -gan.
5. *Jo'nalish kelishigi qo'shimchsini toping.*
a) -da; b) -ga; d) -ning.
6. *Men kitobni o'qiyman. Qaysi kelishikda?*
a) jo'n. k-kda; b) tush. k-kda; d) qar. k-kda.
7. *Gulga, daftarga, qushga qaysi kelishikda?*
a) o'r.-payt k-kda; b) bosh k-kda; d) chiq. k-kda.
8. *Barnoning yozuvi chiroyli. Qaysi kelishikda?*
a) tush. k-kda; b) jo'n. k-kda; d) qar. k-kda.
9. *O'qish kitobidan ertaklar o'qidik. Qaysi kelishikda?*
a) chiq. k-k; b) o'-.payt k-k; d) jo'n. k-k.
10. *Daftar, kitob, ruchka qaysi kelishikda?*
a) qar. k-k; b) tush. k-k; d) bosh k-k.

Jami — 10 ball

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 10-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 10-MSTlga qo'shimcha topshiriq

1. Vatan so'zini kelishiklarda turlang.

Har bir javob uchun 1 baldan.

Jami — 6 ball.

10-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 6 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

11-MSTI

Mavzu: Yakuniy diktant.

Maqsad: So'z turkumlari haqidagi bilimlarini tekshirish.

A). Diloromning buvisi

Rohila xola juda keksayib qolganiga qaramay, gazeta va jurnallarni, katta kitoblarni ko'zoynaksiz o'qiydi. Goho rang-barang ipaklardan nabirasi Diloromga chiroyli do'ppi tikib beradi. Ayrim bolalarning buvisiga o'xshab og'zida tishi yo'iq emas. Uning hamma tishi butun. Shaharni piyoda aylanib chiqsa

ham charchamaydi. Diloromning oyisi bilan dadasi ishidan qaytguncha buvisi uyda o'tiradi. Dilorom bilan mazall ovqat tayyorlaydi, issiq non yopadi, kitob o'qiydi. Diloromga ajoyib ertaklar aytib beradi. Dilorom ham aqlli qiz.

Tekshirillishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Gaplarning bosh harflarda yozilishi (12 ta gap) — 3 ball

(1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b),

(1/2 qismidan ko'p bo'lsa — 0 b)

2. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi (13 ta)

(1ta imlo va 1ta tin.belg.)

— 3 ball

(1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),

(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b)

3. So'z turkumlarida sifatning to'g'ri yozilishi

— 3 ball

(1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b),

(1/2 qismidan ko'p bo'lsa — 0 b)

4. Atoqli otlarning to'g'ri yozilishiga (2 ta)

— 2 ball

5. Chiroyli yozuvga

— 1 ball

Jami

— 12 ball

Ushbu tekshiruv ishida 7 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 11-MSTning SRB 16 balga teng.

B). 11-MSTiga qo'shimcha topshiriq

1. Matndagi narsa va shaxsning belgisini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

Har bir so'z uchun 1 baldan (11 ta so'z)

10-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 11 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

Ona tili fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTilar, 4-sinf, III chorak

№	Mavzular	S/s	TISRB	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Son. So'roq yordamida sonni topish	1		251-253	
2.	Son. So'zlarga bog'lanib kelishi	1		254-256	

3.	12-MSTI. Lug'at diktant	2	11 ball		
4.	Olmosh	1		257-259	
5.	Kishilik olmoshi	1		260-263	
6.	Kishilik olmoshlari-da shaxs-son	1		264-267	
7.	Kishilik olmoshlari-da shaxs-son	1		268-269	
8.	Kishilik olmoshlari kelishiklarda	1		270-272	
9.	Kishilik olmoshlari kelishiklarda	1		273-276	
10.	13-MSTI. Diktant	2	10 ball		
11.	Kishilik olmoshlari kelishiklarda	1		277-279	
12.	Men, sen olmoshlari qaratqich kelishigida	1		280-284	
13.	Mustahkamlash	1		285-288	
14.	Fe'l	1		289-291	
15.	Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar	1		292-294	
16.	Fe'llarda shaxs-son	1		295-297	
17.	Fe'llarda shaxs-son	1		298-300	
18.	Fe'llarda shaxs-son	1		301-302	
19.	14-MSTI. Bayon (293-masbq)	2	13 ball		
20.	Fe'l zamonlari	1		303-305	
21.	Fe'l zamonlari	1		306-308	
22.	Fe'l zamonlari	1		309-310	
23.	O'tgan zamon fe'li	1		311-314	
24.	O'tgan zamon fe'li	1		315-319	
25.	Hozirgi zamon fe'li	1		320-322	
26.	Hozirgi zamon fe'li	1		323-325	
27.	Kelasi zamon fe'li	1		326-328	
28.	Kelasi zamon fe'li	1		329-333	

29.	15-MSTI. Diktant	2	10 ball		
30.	Qo'shma fe'l	1		334-337	
31.	Qo'shma fe'l	1		338-341	
32.	Qo'shma fe'l	1		342-346	
33.	Bog'lovchilar	1		347-349	
34.	Bog'lovchilar	1		350-352	
35.	Bog'lovchilarda tinish belgilarining ishlatilishi	1		353-355	
36.	Bo'lovchilarda tinish belgilarining ishlatilishi	1		356-358	
37.	16-MSTI. Test	2	11 ball		
38.	Gapning uyushiq bo'lagi	1		359-361	
39.	Uyushiq ega, uyushiq kesim	1		362-363	
40.	Ikkinchi darajali uyushiq bo'lak	1		364-366	
41.	Uyushiq bo'laklarda tinish belgilari	1		367-369	
42.	Uyushiq bo'lakka bog'lanib kelgan so'zlar	1		370-372	
43.	Mustahkamlash	1		373-374	
44.	Mustahkamlash	1		375-376	
45.	Mustahkamlash	1			
	Jami	50	55 ball		

4-sinfda ona tili fanidan III chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali (haftasiga 5, chorakda 50 soat)

MSTI tartib raqami	12-MSTI	13-MSTI	14-MSTI	15-MSTI	16-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	3-dars	10-dars	19-dars	29-dars	37-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Lug'at diktant	Diktant	Bayon	Diktant	Test	

Bajarish vaqti (minut)	20	40	40	40	40	
BKM elementlari soni	11	5	7	5	11	39
Tekshiruv ishining standart bali	11	10	13	10	11	55
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	4	6		6	3	19

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda ona tili fanidan III chorak uchun 39 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 39 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 55 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 19 ball olishi mumkin.

12-MSTI

Mavzu: Lug'at asosida diktant.

Maqsad: Bolalarning bilimini tekshirish.

A). Matn

4-sinf, 14-yanvar, 21-vart, 4 ta qalam, 24 ta o'quvchi, 11-fevral, 20 kishi, 8-gator, 2003-yil, 1991-yil.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Har bir to'g'ri yozilgan so'z uchun 1 baldan x 10ta | — 10 ball |
| 2. Chiroyli yozuv uchun | — 1 ball |
| Jami | — 11 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 11 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 12-MSTning SRB 11 balga teng.

B). 12-MSTlga qo'shimcha topshiriq

- Shu so'zlardan 2 ta gap tuzing.
Har bir gap uchun 2 baldan. QB –4 ball.

12-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

13-MSTI

Mavzu: Diktant (Yong'oq).

Maqsad: Olmosh haqidagi bilimlarini tekshirish.

A). Yong'oq

Bir kuni do'stim bilan Qoraqamish jarligida yurardik. Ko'zim uncha katta bo'lmagan yong'oqzorga tushdi. Qizil to'sh sa'valar yong'oq shoxlarida chug'urlashib yurishardi. Ular bizdan qochib uchib ketishdi. Biz shu yerda bir oz dam olmoqchi bo'ldik. Shu payt yong'oq daraxti ostida yong'oq po'choqlarini ko'rib qoldim. Hamrohlarim daraxtning yerdan bir metrcha yuqoridagi kovagidan ikki yuzdan oshiq saralangan yong'oq topib oldi. Men ham uning yonidagi daraxtga chiqdim. Kovakda anchagina yong'oq, uning yonida o'lib yotgan kalamushni ko'rdim. Shuning uchun ham yong'oqlar yeyilmay qolgan ekan.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Gaplarning bosh harflarda yozilishi (9 ta gap) | — 3 ball |
| (1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b), | |
| (1/2 qismidan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| 2. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi | |
| (13 ta) (1ta imlo va 1 ta tin. belg.) | — 3 ball |
| (1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b), | |
| (2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| 3. Olmoshlarning to'g'ri yozilishiga | — 3 ball |
| (1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b), | |
| (1/2 qismidan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| 4. Chiroyli yozuvga | — 1 ball |
| Jami | — 10 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 5 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 13-MSTning SRB 10 balga teng.

B) 13-MSTlga qo'shimcha topshiriq

Olmoshlarni topib, tagiga chizing (6 ta).

Har bir olmosh uchun 1 balidan.

Jami — 6 ball.

13-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 6 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

14-MSTI

Mavzu: Bayon: "Tulki va qarga" (293-mashq asosida).

Maqsad: O'quvchilarning xotirasini rivojlantirish va yozma nutqini o'stirish.

A). Tulki va qarg'a

Reja.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--------------------|----------|
| 1. Reja tuza olish | — 1 ball |
|--------------------|----------|

- | | |
|--|------------------|
| 2. Matnni reja asosida bayon etish | — 3 ball |
| 3. Gaplarni to'g'ri tuzish | — 3 ball |
| 4. Lug'at boyllgi | — 2 ball |
| 5. Imlo va tinish belgilari xatosiz yozilsa
(13 ta) (1ta imlo va 1ta tin.belg.) | — 3 ball |
| (1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun —1 b),
(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| 6. Chiroyli yozuvga | — 1 ball |
| Jami | — 13 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 7 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 14-MSTning SRB 13 balga teng.

15-MSTI

Mavzu: Diktant. Bog'da.

Maqsad: Fe'l haqidagi bilimlarini tekshirish.

A). Bog'da ✓

Maktabimiz yaqinida bog' bor. U katta va ko'rkam. Yo'laklarning yonidan ariq suvi oqib turadi. Suvning shildirashi quloqqa eshitiladi. Baland-baland daraxtlar soyasi kishini o'ziga tortadi. Qushlarning yoqimli sayrash kishiga huzur bag'ishlaydi. Xilma-xil gullarning hidi dimoqqa uriladi. Bolalar chiroyli kapalaklar ketidan quvishadi. Ulkan chinor soyasida shashka, shaxmat o'ynab o'tirishadi. Bog'ning salqin joylarida o'tirish uchun o'rindiqlar bor. U yerda odamlar hordiq chiqaradilar. Bog' kishiga ajoyib orom bag'ishlaydi. (65 ta so'z)

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Gaplarning bosh harflarda yozilishi (9 ta gap)
(1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 —1 b),
(1/2 qismidan ko'p bo'lsa — 0 b) | — 3 ball |
| 2. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi (13 ta)
(1ta imlo va 1 ta tin.belg.).
(1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun —1 b),
(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b) | — 3 ball |
| 3. Olmoshlarning to'g'ri yozilishiga
(1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 —1 b),
(1/2 qismidan ko'p bo'lsa — 0 b). | — 3 ball |
| 4. Chiroyli yozuvga | — 1 ball |
| Jami | — 10 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 5 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 15-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 15-MSTlga qo'shimcha topshiriq

O'tgan zamon fe'llarining tagiga chizing.

Har bir fe'l uchun 1 balidan. (9 ta fe'l)

15-MSTlning qo'shimcha topshiriq'i uchun 6 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

16-MSTI

Mavzu: Fe'l. Test sinovi.

Maqsad: O'quvchilarning fe'l haqidagi bilimlarini aniqlash.

A). Test topshiriqlari

1. Harakatning bajarilganini bildirgan fe'lni aniqlang.
a) keldi; b) aytayapti; d) bormoqchi.
2. Hozirgi zamon fe'lini aniqlang.
a) yozganman; b) boryapman; d) bormoqchi.
3. Ikki yoki undan ortiq fe'l qanday fe'l deyiladi?
a) fe'l; b) sodda fe'l; d) qoshma fe'l.
4. Qaysi qatorida yaqin ma'noli fe'llar yozilgan?
a) tinglamoqchi, chanqamoq; b) adashmoq, eshitmoq; d) gapirmoq, so'zlammoq.
5. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qoying.
Mayin sharmol ...
a) ezdi; b) esdi; d) egdi.
6. va, ammo, biroq so'zlari nima?
a) undalma; b) uyushiq bo'lak; d) bog'lovchi.
7. Nuqtalar o'rniga qaysi bog'lovchini qo'yish kerak?
O'zbekistondagi qushlarning ko'pi issiq tomonlarga uchib ketadi,... ular bahorda yana qaytishadi.
a) va; b) lekin; d) biroq.
8. Gapda nuqtalar o'rniga mos bog'lovchini qo'ying. Odil astoydil musobaqaga tayyorlandi... unda yaxshi ishtirok etib mukofotlandi.
a) va; b) lekin; d) biroq.
9. Nuqtalar o'rniga bog'lovchi qo'ying Qor ... muzlar eridi.
a) va; b) lekin; d) biroq.
10. Tohir va Hamid a'lo o'qiydilar.
Gapda bog'lovchi qaysi bo'laklarni bog'lab kelgan?
a) gapni gapga; b) so'zni so'zga; d) ikkinchi darajali bo'lak.
11. Bahor keldi va qorlar eridi.
Gapda bog'lovchi qaysi bo'laklarni bog'lab kelgan?
a) gapni gapga; b) so'zni so'zga; d) ikkinchi darajali bo'lak.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 11 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 11 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 16-MSTning SRB 11 balga teng.

B). 16-MSTiga qo'shimcha topshiriq

Fe'l zamonlariga 3 ta gap tuzing.

Har bir gap uchun 1 baldan.

Jami — 3 ball.

16-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 3 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

**Ona tili fanidan kalendar mavzuviy ish reja va MSTilar,
4-sinf, IV chorak**

№	Mavzular	S/s	TI SRB	Sinf ishi	Uyga vaziga	Eslatma
1.	Uyushiq bo'laklarda bog'lovchilar	1		377-378	378	
2.	Bog'lovchilar yordamida bog'lash	1		379-380	380	
3.	Mustahkamlash	1		381-383	383	
4.	17-MSTI. Diktant	1	11			
5.	Diktant tahlili	1				
6.	Undalma	1		384-385	385	
7.	Undalma	1		386-387	387	
8.	Undalma	1		388-390	390	
9.	Undalma	1		391-392	392	
10.	Undalma	1		393-394	394	
11.	Takrorlash	1		395-398	398	
12.	Gap bo'laklari	1		399-403	403	
13.	So'z turkumlari	1				
14.	So'z turkumlari	2		404-408	408	
15.	18-MSTI. Bayon	2	13			

16.	Kelishik qo'shimchasi	1				
17.	Egalik qo'shimchasi	1		409-414	415	
18.	Sifat	1		415-419	419	
19.	Olmosh	1		420-424	424	
20.	Kishilik olmoshi	1				
21.	Fe'l zamoni	2		425-430	430	
22.	Bog'lovchilar	1		431-435	434-435	
23.	So'z turkumlari	1		436-440	439-440	
24.	Unli tovushlar	1				
25.	Bo'g'in	1		441-445	444-445	
26.	19-MSTI. Test	2	10			
27.	Jarangli va jarangsiz undosh.	1		446-448	448-449	
28.	Tutuq belgisi	1		450-451	453-454	
29.	Undosh tovushlar	1		455-458	457-458	
30.	Uyushiq bo'laklar	1		459-463	462-463	
31.	Mustahkamlash	1		464-468	467-468	
32.	Mustahkamlash	1		469-475	474-475	
33.	20-MSTI. Diktant	1	14			
34.	Diktant tahlili	1				
35.	Takrorlash	1				
36.	Takrorlash	1				
	Jami	40	48			

**4-sinfda ona tili fanidan IV chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting ballarini hisobga olish jadvali
(haftasiga 5, chorakda 40 soat)**

MSTI tartib raqami	17-MSTI	18-MSTI	19-MSTI	20-MSTI	SCHRB
MSTI o'tkazish muddati	4-dars	16-dars	29-dars	37-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Diktant	Bayon	Test	Yakuniy diktant	

Bajarish vaqti (minut)	45	45	45	45	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	7	8	10	9	34
Tekshiruv ishining standart bali	11	13	10	14	48
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	4	-	3	2	9

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda ona tili fanidan IV chorak uchun 34 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 34 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 48 balga teng.

Bundan tashqari MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 9 ball olishi mumkin.

17-MSTI

Mavzu: Diktant.

Maqsad: Gapning uyushiq bo'laklari haqidagi bilimlarini tekshirish.

A). O'lkamiz hayvonlari

Xalqimiz qo'y, echki, sigir va boshqa hayvonlarni boqadi. Ulardan go'sht, sut, yog' va boshqa mahsulotlar olinadi.

Bulardan tashqari O'zbekistonda yovvoyi echki, tog' takasi, jayron, qunduz kabi hayvonlar ham juda ko'p. Lekin bu hayvonlarning tur va sonini aniqlash kerak. Shu maqsadda kunlar isishi bilan respublikamizdagi ovchilik va o'rmon xo'jaliklarida yuzlab kishilar bu ish bilan shug'ullanadilar. Ular yil davomida hayvon va parrandalarni, qimmatbaho jonivorlarni ro'yxatga olishib, yashash joyini aniqlashadi (78 so'z).

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Gaplarning bosh harflarda yozilishi (9 ta gap) — 3 ball
(1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b),
(1/2 qismidan ko'p bo'lsa — 0 b)
2. Imlo va tinish belgilarning to'g'ri qo'yilishi (13 ta) (1 ta imlo va 1 ta tin.belg.) — 3 ball
(1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),
(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b).
3. Atoqli otlarning to'g'ri yozilishiga — 1 ball
4. Gapdagi uyushiq bo'laklarining to'g'ri yozilishiga — 1 ball
5. Ketma-ket kelgan bir xil undoshlarni yozish — 4 ta — 2 ball

(2 ta xatoga — 1 b)

6. Chiroyli yozuvga — 1 ball

(Bo'g'in ko'chirishdagi xatosi uchun 1 ball kamayadi)

Jami — 11 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 7 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 17-MSTning SRB 11 balga teng.

B). 17-MSTga qo'shimcha topshiriq

Gapning uyushiq bo'laklari tagiga chizish. (4 ta gapda)

Har bir to'g'ri javobga 1 baldan.

17-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

18-MSTI

Mavzu: O'lkamda bahor. (Bayon)

Maqsad: O'quvchilar xotirasini rivojlantirish va yozma nutqini o'stirish.

A). O'lkamda bahor

Reja:

1. Bahor yaqinlashdi.

2. Bahor tarovati.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Reja tuza olish (2 ta) — 2 ball

2. Matnni reja asosida bayon etish (2 ta rejaga 1 baldan) — 2 ball

3. Matnni to'liq ifoda qilish — 3 ball

(Qisman bayon etganligi uchun 1 ball).

4. Lug'at boyligi — 2 ball

5. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi (13 ta) — 3 ball.
(1 ta imlo va 1 ta tin. belg.)

(1/2 xato uchun -2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),

(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b)

6. Chiroyli yozuvga — 1 ball

Jami — 13 ball

Ushbu tekshiruv ishida 8 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 18-MSTning SRB 13 balga teng.

19-MSTI

Mavzu: Yil davonida o'tilganlarni takrorlash.

Maqsad: Bog'lovchi, gapning uyushiq bo'laklari haqida olingan bilimlarni tekshirish.

A). Test sinovi

1. Qaysi so'zlar bog'lovchilarga kiradi?
a) men, sen, u; b) va, lekin, ammo, biroq; d) qizil, sariq, oq.
2. Uyushiq bo'lak nima?
a) gapdagi bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlar;
b) gapning bosh bo'lagi; d) gapning ikkinchi darajali bo'lagi.
3. "Chiroq atrofida juda ko'p kapalak va parvonalar uchib yuribdi". Uyushiq bo'laklar nima bilan bog'lanyapti?
a) sifat bilan; b) uyushiq bo'lak bilan; d) bog'lovchi bilan.
4. Undalma nima?
a) gapning uyushiq bo'lagi; b) so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgan so'z; d) predmetning harakatini bildirgan so'z.
5. Gulga, daftarga, qushga so'zlari qaysi kelishikda?
a) jo'nalish kelishigi; b) bosh kelishik; d) qaratqich kelishigi.
6. "Bolalar, siz kitobni seving". Bu qanday gap?
a) bog'lovchi; b) uyushiq bo'lagi; d) undalma
7. Undalma qaysi so'z turkumi bilan ifodalanadi?
a) ot so'z turkumi bilan; b) fe'l soz turkumi bilan; d) son so'z turkumi bilan.
8. "O'qiyapsan" fe'li qaysi zamonada?
a) o'tgan zamon; b) kelasi zamon; d) hozirgi zamon.
9. -di, -gan, -yap, -moqda, -moqchi qo'shimchalari qanday qo'shimchalar?
a) chiqish kelishigi qo'shimchalari; b) zamon qo'shimchalari; d) kelishik qo'shimchalari.
10. Fe'l zamonlari nechta?
a) 3 ta; b) 4 ta; d) 6 ta.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 10 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 19-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 19-MSTlga qo'shimcha topshiriq

"Ushla" so'zini zamonlarda ko'rsating. (3 ta)

19-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 3 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

20-MSTI

Mavzu: Yakuniy diktant.

Maqsad: Yil davomida olingan bilimlarni tekshirish.

A). Ahillik

Gulzodaning ko'nglidagi g'ashlik tarqaldi. Nuqul jamoani orqaga tortib yuradigan Botir o'z saflariga qaytdi. Bunga u osonlikcha erishgani yo'q. Hatto uni chaqimchi deb ham atashdi. Voqea bunday bo'lgan edi. Botir odatdagiday matematikadan "ikki" oldi. Jamoa raisi bo'la turib Gulzoda bu holga befarq qaray olarmidi?! O'sha kuni Botirlarnikiga bordi. Dilidagi gaplarni uning onasiga to'kib soldi. Ona o'glining bu mehribon do'stiga rahmat aytib, Botirni qattiq uyaltirdi.

Mana, matematika o'qituvchisi Botirning kundalik daftariga birinchi marotaba "besh" baho qo'ydi (75 ta so'z).

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni.

- | | |
|---|------------------|
| 1. Gapiarning bosh harflarda yozilishi (9 ta gap)
(1/3 qismida xato qilsa — 2 b), (1/2 — 1 b),
(1/2 qismidan ko'p bo'lsa — 0 b) | — 3 ball |
| 2. Bog'lovchilarning to'g'ri qo'yilishi | — 2 ball |
| 3. Gapdagi uyushiq bo'laklarning to'g'ri yozilishiga | — 1 ball |
| 4. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilish (13 ta)
(1 ta imlo va 1 ta tin.belg.) | — 3 ball |
| (1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),
(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b) | |
| 5. Atogli otlarning to'g'ri yozilishiga | — 1 ball |
| 6. Gapdagi uyushiq bo'laklarning to'g'ri yozilishiga | — 1 ball |
| 7. Ketma-ket kelgan bir xil undoshlarni yozish -5 ta
(3 ta xatoga - 1 b). | — 2 ball |
| 8. Chiroyli yozuvga
(Bo'g'in ko'chirishdagi xatosi uchun 1 ball kamayadi). | — 1 ball |
| Jami | — 14 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 9 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 20-MSTning SRB 14 balga teng.

B). 20-MSTga qo'shimcha topshiriq

Bog'lovchilar ishtirokida 2 ta gap tuzing.

20-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 2 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

O'QISH

**4-sinf o'qish fanidan o'quv yili uchun o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda SRBni hisobga olish jadvali
(haftasiga 5, yiliga 170 soat)**

Choraklar	I	II	III	IV	Yillik
MSTI soni	5	5	6	5	21
BKM elementlari soni	34	33	59	41	167
Tekshiruv ishining standart bali	51	52	73	57	233
Qo'shimcha topshiriq bali	21	—	8	—	29

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda o'qish fanidan o'quv yili uchun 34 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Yillik standart reyting bali 167 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 233 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun o'quvchi qo'shimcha 29 ball olishi mumkin.

O'qish fanidan kalendar mavzuviy ish reja va MSTIlar, 4-sinf, I chorak

No	Mavzular	S/s	TSRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi	1				
2.	Asrga tatigulik kun	1				
3.	Iqbol buyuksan	1				
4.	Assalom, "Neksiya"	1				
5.	Sog'lom avlod qo'shig'i	1				
6.	Sinfidan tashqari o'qish	1				
7✓	1-MSTI. Test sinovi	1	12			

8.	Vaifod. O'q O'zbekiston — vatanim mening	1				9
9.	Mening O'zbekiston	1				
10.	Serguvosh o'lka	1				
11.	Toshkentnoma	1				
12.	Dehqonbobo va o'n ikki bolakay qissasi	1				
13.	Mardlik va aql yorug'ligi	1				
14.	Xalq	1				
15.	Xarita	1				
16.	Ijodiy mashg'ulot Hur o'lkam	1				
17.	2-MSTI. Test sinovi	1	10			
18.	Oltin kuz. Oltin tasl.	1				
19.	Kuz	1				
20.	Qovun sayli	2				
21.	Ijodiy mashg'ulot Hosil mo'l	1				
22.	3-MSTI. Test sinovi	1	10			
23.	Ma'naviyat—qalb quyoshi	2				
24.	Salomlashish odobi	1				
25.	Odamdan nima qoladi?	1				
26.	Har kim ekanin o'rar!	1				
27.	Ustozingga rahmat	1				
28.	Sodda qishloqi va uning eshagi qissasi	1				
29.	Chaqimchiga mukofot	1				
30.	Omonotga xiyonat	1				
31.	Tuz haqi	1				
32.	Hadislardan namunalar	1				
33.	4-MSTI. Insho	1	12			
34.	Xalq og'zaki ijodi	1				

35.	Boychechak	1				
36.	Tuyalar	1				
37.	Oftob chiqdi olamga	1				
38.	Laylak keldi — yoz bo'ldi	1				
39.	Xo'p hayda	1				
40.	5-MSTI. She'rnı yod olish	2	7			
41.	Ertaklar olamida	1				
42.	Ilm afzal	1				
43.	Ovchi. Ko'kcha va dono	1				
44.	Bo'riining tabib bo'lgani haqida ertak	1				
	Jami	45	51			

**4-sinfda o'qish fanidan I chorak uchun BKM elementlari
soni va standart reyting ballarini hisobga olish jadvali
(haftasiga 5, chorakda 45 soat)**

MSTI tartib raqami	1-MSTI	2-MSTI	3-MSTI	4-MSTI	5-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	7-dars	17-dars	22-dars	33-dars	40-dars	-
MSTI o'tkazish shakli	Test sin. ifod. o'q	Test sinovi	Test sinovi	Insho	Yod olish	-
Bajarish vaqti (minut)	20	20	40	40	40	-
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	5	10	10	5	4	34
Tekshiruv ishining standart bali	12	10	10	12	7	51
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	7	7	7	-	-	21

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda o'qish fanidan I chorak uchun 34 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 34 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 51 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun o'quvchi qo'shimcha 21 ball olishi mumkin.

O'qish bo'yicha o'tkaziladigan MSTIlarda bilim, ko'nikma va malakalarni reyting usulida baholash me'yorlari

I. **Matnni so'zlab berish** (chorakda 1-2 marta o'tkaziladi).

Maqsad: Og'zaki nutq malakalari rivojlanishini nazorat qilish.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|-----------------|
| 1). Matnning mazmunini so'zlab berishning to'laligi | — 2 ball |
| (so'zlab berishdagi ayrim xatoliklarning mavjudligi – 1 b) | |
| 2). To'lliq mustaqil ravishda so'zlab berish | — 2 ball |
| (savollar yordamida so'zlab berish — 1 b) | |
| 3). Mazmunni so'zlashda ketma-ketlikka rioya qilish | — 1 ball |
| 4). So'zlab berishda hayajonlanish | — 1 ball |
| 5). Matndagi so'zlar va iboralardan foydalanish mumkinligi | — 1 ball |
| 6). Stilistik savodxonllgi | — 1 ball |
| Lug'at boyligi va ulardan to'g'ri foydalanishi | — 1 ball |
| Jami | — 9 ball |

II. *Ifodali o'qish* (chorakda 1-2 marta o'tkaziladi)

Maqsad: Adabiy ifodali o'qishning rivojlanishini nazorat qilish.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|-----------------|
| 1). Tinish belgilariga ahamiyat berish | — 1 ball |
| 2). His-hayajon va ohangiga rioya qilish | — 2 ball |
| 3). So'zlarni to'liq o'qish | — 2 ball |
| (bo'g'inlab o'qish — 1 b) | |
| (harflab o'qish — 0 b) | |
| 4). Ravon o'qish | — 1 ball |
| Jami | — 6 ball |

III. *She'r va prozani yod olish.*

Maqsad: O'quvchilarning xotirasi, og'zaki nutqining rivojlanishi va his-hayajon bilan ifodalanishini tekshirish.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- 1). Matnni to'liq yoddan bilish — 3 ball
(so'zlarning joyi almashsa yoki ketma-ketlik buzilsa — 1 b)
2). Urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish va she'rning ritmiga rioya qilish — 2 ball
(qisman buzilishga yo'l qo'yilsa — 1 b)
3). His-hayajon va ohangni to'g'ri qo'llash — 2 ball
(to'liq rioya qilinmasi — 1 b)
Jami — **7 ball**

IV. O'qish texnikasi.

Maqsad: O'qish normalariga binoan ravon, to'g'ri va ifodali o'qishini tekshirish.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- 1). Ushbu sinfda o'qish normalariga binoan ravon o'qish — 3 ball
2). O'qish turlari: to'liq so'zlar bilan — 3 ball
aralash o'qish — 2 ball, bo'g'inlab o'qish — 1 ball
harflab o'qish — 0 ball.
3). O'qish savodxonligi: a) xatosiz ravon o'qish — 4 ball
b) quyidagi xatolarga yo'l qo'yish:
(— so'zlarni va harflarni almashtirish,
— takrorlab o'qish,
— qo'shimchalardagi xatolar
— urg'udagi xatolar uchun — 1 baldan kamaytiriladi)
4). Ifodali o'qishga — 1 ball
5). Anglab o'qishga — 1 ball
Jami — **12 ball**

1-MSTI

Mavzu: Test (kichik) sinovi. "Iqbol buyuksan" she'rini yoddan aytish.

Maqsad: O'quvchilarning ifodali she'r o'qishlarini va bo'lim yuzasidan olgan bilimlarini aniqlash.

A). Testlar

1).

1. "O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat" gapini kim aytgan?
a) A. Navoiy; b) I. Karimov; d) Amir Temur.
2. O'zbekiston mustaqil deb qachon e'lon qilindi?
a) 1991-yil 31-avgust; b) 1991-yil 1-sentyabr; d) 1991-yil 30-avgust.
3. O'zbekiston Davlat madhiyasini kim yozgan?
a) Zafar Diyor; b) A. Oripov; d) M. Shayxzoda.

4. O'zbekiston Davlat madhiyasiga kim kuy bastalagan?

a) Sh. Yormatov; b) M. Burxonov; d) S. Yudakov.

5. O'zbekiston qaysi davlat bilan chegaradosh?

a) Qozog'iston, Pokiston, Hindiston, Qirg'iziston;

b) Tojikiston, Xitoy, Afg'oniston, Rossiya;

d) Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston.

II. "Iqbolli buyuksan". A. Oripov she'ri. She'rni yoddan aytish.

Avvalo rahmatdir onada,

So'ng esa albatta otaga.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1). Test. Har bir to'g'ri javobga 1 baldan — 5 ball

2). Matnni to'liq yoddan bilish — 3 ball

(so'zlarning joyini almashtirish yoki ketma-ketlik
buzilsa — 2 b)

3). Urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish va she'rning ritmiga
rioya qilish — 2 ball

(qisman buzilishda yo'l qo'yilsa — 1 b)

4). His-hayajon va ohangni to'g'ri qo'llash — 2 ball

(to'liq rioya qilinmasa — 1 b.)

Jami — 12 ball

**Ushbu tekshiruv ishida 5 ta BKM element mavjud bo'lib, 1-MSTning
SRB 12 balga teng.**

B). 1-MSTiga qo'shimcha topshiriq

1. Sog'lom avlod qo'shig'ini yoddan aytish (she'rni yod olish me'yoriga
qarang — 7 ball)

**1-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 7 qo'shimcha ball (QB)
qo'yiladi.**

2-MSTI

Mavzu: O'zbekiston — vatanim manim.

Maqsad: O'quvchilarning bo'lim yuzasidan olgan bilimlarini aniqlash.

A). Test sinovi

✓ 1. Serquyosh o'lkamizning nomi nima deb ataladi?

a) Qirg'iziston; b) O'zbekiston; d) Turkmaniston

2. Do'stlar mening yurtimni...

a) O'zbekiston deydilar; b) Dong'i tutgan dunyoni; d) Bog'u bo'ston deydilar.

Bu misralar qaysi she'rdan olingan?

a) "Toshkentnoma"; b) "Dehqonbobo va o'n ikki bolakay"; d) "Serquyosh o'lka".

3. "O'zbekiston" she'rini kim yozgan?

a) A. Oripov; b) Z. Diyor; d) Serquyosh o'lka.

4. O'zbekiston poytaxti qaysi shahar?

a) Buxoro; b) Toshkent; d) Samarqand.

5. "Buibul chamarni sevar, odam vatanni maqoli" nima haqida?

a) mehnat; b) ?; d)?

6. Dehqonbobo poyezdda kimlarni uchratdi?

a) ayollarni; b) bolalarni; d) chollarni.

7. "Xalq" she'rini kim yozgan?

a) Cho'lpon; b) A. Oripov; d) Z. Diyor.

8. — Chizolmaysan! — dedi Samad tap tortmay. — Bu senga shunchaki rasm emas...

Bu so'zlar qaysi hikoyadan olingan?

a) Assalom, "Neksiya"; b) "Xarita"; d) "Asrga tatigulik kun".

9. Rasul nimaning suratini chizdi?

a) tarvuz; b) xarita; d) paxta.

10. O'zbekistonda qanday yangi zavod qurildi?

a) paxta zavodi; b) mashina zavodi; d) non zavodi.

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 2-MSTIning SRB 10 balga teng.

B). 2-MSTIga qo'shimcha topshiriq

1. "O'zbekiston" she'rini yoddan o'qish (she'rni yod olish me'yoriga qarang — 7 ball).

2-MSTIning qo'shimcha topshirig'i uchun 7 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

3-MSTI

Mavzu: Oltin kuz.

Maqsad: O'quvchilarning bo'lim yuzasidan va kuz haqida olgan bilimlarini aniqlash.

A). Test sinovi

1. Kuz faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

a) bog'lar va o'tloqlar sarg'ayadi; b) bog'lar va o'tloqlar yashil rangda; d) bog'lar va o'tloqlar o'sib chiqadi.

2. Kuzda qaysi qushlar boshqa o'lkalarga uchib ketadi?

a) qaldirg'och, uzunqanot, ko'kqarg'a; b) chumchuq, mayna, qaldirg'och; d) qaldirg'och, mayna, qarg'a.

3. Kishilarning kuzgi mehnati haqidagi gapni toping?

- a) dalalarda ekinni parvarih qiladi; b) dalalardan hosilni yig'ib oladi;
d) ekin ekishadi.

4. Qaysi oylar kuz fasliga kiradi?

- a) oktabr, noyabr, dekabr; b) avgust, sentabr, oktabr;
d) sentabr, oktabr, noyabr.

5. G'ir-g'ir shamoj yeladi,

Buni hamm biladi.

O'girdi elga yuz

Marhamat, kel, oltin kuz.

Bu misralar qaysi she'rdan?

- a) "Serquyosh o'lka"; b) "Kuz"; d) "Toshkentnoma".

6. Qovun sayli qaysi faslda bo'ladi?

- a) Kuzda; b) Yozda; d) Bahorda.

7. Quyidagi maqollardan qaysi biri kuz haqida?

- a) Ona bilan bola, gul bilan lola; b) Yer haydasang kuz hayda;
d) Mehnat, mehnatning tagi rohat.

8. Bolalarni polizga kim olib bordi?

- a) ota-onasi; b) tog'asi; d) bobosi.

9. Ular polizda nimalarni ko'rdilar?

- a) qovuv, tarvuz; b) olma, nok; d) makkajo'xori, bug'doy.

10. Kuzda qaysi mevalar g'arq pishadi?

- a) anor, o'rik, olcha; b) qulupnay, olcha, o'rik; d) nok, olma, uzum.

Jami

— 10 ball

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM element mavjud bo'lib, 3-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 3-MSTga qo'shimcha topshiriq

1. "Dehqon" she'rini yoddan aytish (she'rni yod olish me'yoriga qarang — 7 ball).

3-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 7 qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

4-MSTI

Mavzu: Ma'naviyat — qalbim quyoshi.

Maqsad: O'quvchilarning bilim, qobiliyat va malakalarini tekshirish.

A). Insho

Reja:

1. Salomlashish odobi
2. Har kim ekanin o'rar
3. Inson odobi

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. O'z fikrini reja asosida ketma-ket bayon eta olish — 3 ball
2. So'zlarni to'g'ri qo'llash, lug'at boyligi — 3 ball
3. Gaplarni to'g'ri tuzish — 3 ball
4. Imlo va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishi (13 ta)
(1 ta imlo va 1 ta tin. belg.) — 3 ball
- (1/2 xato uchun — 2 b), (2/3 xato uchun — 1 b),
(2/3 tadan ko'p bo'lsa — 0 b)
- Jami** — 12 ball

Ushbu tekshiruv ishida 5 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 4-MSTning SRB 12 balga teng.

5-MSTI

Mavzu: Xalq og'zaki ijodi. "Xo'p hayda" she'rini yod olish.

Maqsad: O'quvchilarning she'ri ifodali o'qiy olishlarini tekshirish.

Xo'p hayda.

Xo'p hayda-yo, xo'p hayda,

Qalqon qulog'im hayda.

Temir tuyog'im hayda,

Xirmonni qilgin mayda.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- 1). Matnni to'liq yoddan bilish — 3 ball
(so'zlarning joyi almashtirilsa yoki ketma-ketlik buzilsa — 1 b)
- 2). Urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish va she'rning ritmiga rioya qilish — 2 ball
(qisman buzilishiga yo'l qo'yilsa — 1 b)
- 3). His-hayajon va ohangni to'g'ri qo'llash — 2 ball
(to'liq rioya qilinmasa — 1 b)
- Jami** — 7 ball

Ushbu tekshiruv ishida 4 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 5-MSTning SRB 7 balga teng.

**O'qish fanidan kalendar mavzuly ish reja va MSTlar,
4-sinf, II chorak**

№	Mavzular	S/s	TISRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Ko'zacha va tulki	1		75-79	75-79	
2.	Ochko'z boy	1		79-81	79-81	
3.	Hiylagarning jazosi	1		81-83	81-83	

4.	Hunarsiz kishi o'linga yaqin	1		84-87	84-87	
13.	Ko'paytuvchilar-ning o'rnini almashtirish	2		599-605	6-4,506	

14.	2/4 qismini topish	2		606-612	611-612	
15.	O bilan tugagan songa bo'lish	1		613-619	618,619	
16.	O bilan tugagan songa bo'lish	1		620-626	625,626	
17.	11-MSTI. Nazorat ishi	1	19			
18.	Bo'shliqlarni to'ldirish	1		627-632	631,632	
19.	Masalalar yechish	1		633-639	638,639	
20.	Qoldiqli bo'lish	1		640-645	644,645	
21.	Qoldiqli bo'lish	1		646-650	649,650	
22.	2 ta nol bilan tugagan sonlarga bo'lish	1		651-657	656,657	
23.	2 ta nol bilan tugagan sonlarga bo'lish	1		658-664	663,664	
24.	Masalalarni taqqoslash	1		665-668	668	
25.	Masalalarni taqqoslash	1		669-674	673,674	
26.	Qoldiqli bo'lishni tekshirish	1		675-681	680,681	
27.	12-MSTI. Matematik diktant	2	16	1-10	7,8	
28.	Mustahkamlash	1		11-20	19,20	
29.	2 va 3 xohali sonlarga ko'paytirish	1		682-688	688	
30.	2 xonali songa ko'paytirish	1		689-696	695,696	
31.	2 xonali songa ko'paytirish	1		697-703	702,703	
32.	2 xonali songa ko'paytirish	1		704-710	710	
33.	Masalalar	1		711-716	715,716	

34.	Masalalar	1		717-722	722	
35.	13-MSTI. Nazorat ishi	2	21			
36.	2 xonali songa ko'paytirish	1		723-728	727,728	
37.	2 xonali songa ko'paytirish	1		729-733	733,734	
38.	3 xonali songa ko'paytirish	1		735-741	740,741	
39.	3 xonali songa ko'paytirish	1		742-747	746,747	
40.	3 xonali songa ko'paytirish	1		748-753	752,753	
41.	14-MSTI. Nazorat ishi	1	17			
42.	Bo'shliqlarni to'ldirish	1		754-760	759-760	
43.	Mustahkamlash	1		1-4	3	
44.	Mustahkamlash	2		5-9	9	
	Jami	50	85	10-14	13	

4-sinfda, matematika fanidan III chorak uchun BKM elementlari soni va standartli reyting balini hisobga olish jadvali
(haftasiga 5, chorakda 50 soat)

MSTI tartib raqami	10-MSTI	11-MSTI	12-MSTI	13-MSTI	14-MSTI	ChSRB
O'tkazish muddati	7-dars	20-dars	30-dars	39-dars	45-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Yozma ish	Yozma ish	Matem. dikt	Yozma ish	Yozma ish	
Bajarish vaqti (minut)	15	40	15	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan	12	19	16	21	17	85
BKM elementlari soni						
Tekshiruv ishining standart bali	12	19	16	21	17	85
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	4	4	4	4	6	22

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda matematika fanidan III chorak uchun 85 ta asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 85 ta asosiy BKM elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 85 baiga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkabli qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 22 ball olish mumkin.

10-MSTI

Mavzu: Maymatik diktant.

Maqsad: O'quvchilarning maydonning yuzasini topish haqidagi bilim va malakalarini tekshirish.

1. Dm² kvadratda ifodalang: 6 kv. m, 1 kv. m, 28 dm², 500 sm², 10 000 mm².
2. Sm² ifodalang: 7 dm², 3 dm², 49 sm², 800 mm², 2 500 mm².
3. Mm² ifodalang: 13 sm², 35 sm², 35 dm², 6 dm².
4. M² ifodalang: 1700 dm², 60 000 sm².

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1.Dm ² da ifodalash	1 baldan	— 4 ball
2.Sm ² da ifodalash	1 baldan	— 3 ball
3.Mm ² da ifodalash	1 baldan	— 3 ball
4.M ² da ifodalash	1 baldan	— 1 ball
Jami		— 12 ball

Ushbu tekshiruv ishida 12 BKM elementi mavjud bo'lib, 10-MSTIning SRB 12 balga teng.

B). 10-MSTIga qo'shimcha topshiriq

1. Kvadrat mm. da ifodalang: 4 sm², 25 sm², 3 sm², 16 mm², 38 sm², 76 mm².

10-MSTIning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

11-MSTI

Mavzu: Nazorat ishi.

Maqsad: O'quvchilarning olgan bilimlarini tekshirish.

A). Nazorat ishi

1-qator.

1. Masala.

Kuzda o'quvchilar yangi bog'ga har bir qatorida 54 tupdan 30 qator ko'chat ekishdi.

Ulardan 3 qismi qarag'ay, qolganlari terak. O'quvchilar necha tup terak ekishdi?

$$2. Ko'paytirishni bajaring. \quad 105 \cdot 900 = \quad 287 \cdot 40 = \quad 58700 \cdot 6 = \\ 360 \cdot 900 =$$

$$3. Ifodalarni solishtir. \quad 12^{\circ}5:10 \text{ va } 12^{\circ}50$$

4. To'g'ri to'rtburchakning uzunligi 6 sm, eni 5 sm. To'g'ri to'rtburchakning yuzini top.

2-qator.

1. Masala.

Do'konga har qaysisi 65 kg.dan 50 qop yorma olib kelishdi. Bir kunda yormaning 5 dan 1 qismi sotildi. Qancha qop yorma qoldi?

$$2. Ko'paytirishni bajaring. \quad 498 \cdot 30 = \quad 720 - 800 = \quad 458 \cdot 200 = \\ 68400 \cdot 9 =$$

$$3. Ifodalarni solishtir. \quad 15 \cdot 40 \text{ va } 15 \cdot 4 \cdot 10$$

4. Agar to'g'ri to'rtburchak yuzi 45 sm, bo'yi 9 smga teng bo'lsa, to'g'ri to'rtburchakning enini top.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementi nomi va soni:

1.Masala.

a) Masalaning qisqa shartiga — 1 ball

b) Har bir amalning to'g'ri yechilishi uchun
1 baldan (3 amal) — 3 ball

d) To'g'ri nomlash uchun — 1 ball

e) Amallarni to'g'ri raqamlash — 1 ball

f) To'g'ri aks ettirilgan javob uchun — 1 ball

2. Misollarning to'g'ri yechilishi uchun har bir
misolga 1 baldan — 4 ball

3. Ifodani solishtirish: — 4 ball

4. To'g'ri to'rtburchakning yuzini topish: — 3 ball

5. Raqamlarning to'g'ri yozilishi — 1 ball

Ushbu tekshiruv ishining har bir variantida 19 BKM elementi mavjud bo'lib, 11-MSTning SRB 19 balga teng.

B). 11-MSTga qo'shimcha topshiriq

1. Kvadrat mm. da ifodalang: 4 sm^2 , 25 sm^2 , 3 sm^2 , 16 mm^2 , 38 sm^2 , 76 mm^2 .

11-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

12-MSTI ✓

Mavzu: Matematik diktant.

Maqsad: O'quvchilar bilimini aniqlash.

A). Matematik diktant

1. 1250 soni ichidagi o'nliklarni yoz.
2. 560 sonining 8 dan 3 qismini top.
3. 72 sonining 10 dan 1 qismini top.
4. Sport seksiyasining mashg'uloti 1 soat 15 min. davom etadi. Minutda ifodala.
5. 240 daqiqa necha soatga teng?
6. Akasi 17 yoshu 7 oylik. U singlisidan 3 yoshu 5 oylik katta. Singlisi necha yoshda?
7. Yosh naturalistlar 200 ta urug'li ko'chat ekishdi. Har 100 urug'likdan 2 tasi unmad.
- Qancha ungan?
8. Bir tonna shakar 20 ta qopga joylashgan. Har bir qopda necha kg. shakar bor?
9. Qorovul soat 22 da navbatchilikka turib, uni ertalab soat 7 da tugatdi. Navbatchilik necha soat davom etgan?
10. Yil boshidan 4 oy o'tgan bo'lsa, qaysi oy boshlanadi?

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir elementning to'g'ri javobi uchun 1 ball.

- | | |
|-----------------|------------------|
| 1). 3 ta elem. | — 3 ball |
| 2). 2 ta elem. | — 2 ball |
| 3). 1 ta elem. | — 1 ball |
| 4). 2 ta elem. | — 2 ball |
| 5). 1 ta elem. | — 1 ball |
| 6). 1 ta elem. | — 1 ball |
| 7). 2 ta elem. | — 2 ball |
| 8). 1 ta elem. | — 1 ball |
| 9). 2 ta elem. | — 2 ball |
| 10). 1 ta elem. | — 1 ball |
| Jami | — 16 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 16 ta BKM elementi bo'lib, 12-MSTning SRB 16 balga teng.

B). 12-MSTiga qo'shimcha topshiriq

1. Eni 9 sm, bo'yi 4 sm. bo'lgan 1-to'rtburchakning yuzi va eni 6 sm, bo'yi 3 sm. bo'lgan 2-to'rtburchakning yuzidan necha marta ortiq?

12-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

13-MST ✓

I - qator ✓

1. Masala.

Oraligi 12 km. 600 m. bo'lgan ikki qarama-qarshi qirg'oqdan bir-biriga qarab motorli qayiq va kater yo'lga chiqdi. Qayiqning tezligi 300 m/min, katerniki 600 m/min. Necha minutdan so'ng ular uchrashadi?

2. To'g'ri to'rtburchakli ko'lining maydoni 17200 m²., bo'yi 200 m. Ko'lining enini top.

3. *Bo'linmani toping va tekshiring.* $68240 : 40 = 3620 : 20 = 720 : 60 =$

✓4. *Tenglamani yeching.* $x : 80 = 4$

2-qator

1. Masala.

Ikki qishloqdan bir-biriga qarab 2 ta chang'ichi yo'lga chiqdi. Ular 50 min dan so'ng uchrashishdi. Birining tezligi minutiga 200 m, ikkinchisining minutiga 250 m. Ikki qishloq orasidagi masofani top.

2. Maktab sport maydonchasining shakli to'g'ri to'rtburchak bo'lib, yuzi 11250 m² ga, eni 90 m.ga teng.

Maydonning bo'yini top.

3. *Bo'linmani toping va tekshiring.*

$75270 : 30 = 205100 : 700 = 640 : 40 =$

✓4. *Tenglamani yeching.* $600 : x = 20$

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Masala.

- | | |
|--|----------|
| a) Masalaning qisqa shartiga | — 1 ball |
| b) Har bir amalning to'g'ri yechilishi uchun 1 baldan (3 amal) | — 3 ball |
| d) To'g'ri nomlash uchun | — 1 ball |
| e) Amallarni to'g'ri raqamlash | — 1 ball |
| f) To'g'ri aks ettirilgan javob uchun | — 1 ball |

2. *Masala:*

- a) Masalaning qisqa shartiga — 1 ball
b) Har bir amalning to'g'ri yechilishi uchun 1 baldan (2 amal) — 2 ball
d) To'g'ri javob uchun — 1 ball
3. Bo'linmani topish va tekshirish 1 baldan — 6 ball
4. Tenglamani yechish
a) Noma'lum bo'linuvchini topish va tekshirish uchun — 2 ball
b) Noma'lum ko'paytuvchini topish va tekshirish uchun — 2 ball

Ushbu tekshiruv ishining har bir variantida 21 BKM elementi mavjud bo'lib, 13-MSTning SRB 21 balga teng.

B). 13-MSTga qo'shimcha topshiriq

1. Yuzasi 64 sm^2 bo'lgan kvadratning perimetrini toping.

13-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

14-MSTI

✓ **1-qator**

1. *Masala.*

Ikkita magazinga bir xil paketlarga bo'linadigan 1800 kg. kartoshka olib kelindi. Birinchi do'konga 540 paket, ikkinchisida 360 paket olib kelindi. Birinchi do'konga necha kg. kartoshka olib kelindi?

2. Uzunligining 4 dan 1 qismi 2 sm. 4 mm.ga teng bo'lgan *kesma chiz.*

3. *Ko'paytmani hisobla.* $278 * 34 =$ $309 * 63 =$ $4700 * 23 =$

4. Agar $A = 400$, $B = 2178$ bo'lsa, $A - B$ ifodaning qiymatini top.

✓ **2-qator**

1. *Masala.*

1. Yangi uyning ichki bezagi uchun bir xil miqdorli bankalarda 2000 kg. bo'yoq keltirishdi.

Shulardan 270 tasi oq kraskali banka va 130 ta yashil bo'yoqli banka. Necha kg. oq bo'yoq olib kelingan?

2. 3 ta qismi 3 sm. 6 mm.ga teng bo'lgan *kesma chiz.*

3. *Ko'paytmani hisobla.* $534 * 26 =$ $702 * 39 =$ $8500 * 18 =$

4. Agar $C = 9100$, $A =$ 864 bo'lsa, $C - A$ ifodaning qiymatini top.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. *Masala.*

- a) Masalaning qisqa shartiga — 1 ball
b) Har bir amalning to'g'ri yechilishi uchun

1 balidan (3 amal)	— 3 ball
d) To'g'ri nomlash uchun	— 1 ball
e) Amallarni to'g'ri raqamlash	— 1 ball
f) To'g'ri aks ettirilgan javob uchun	— 1 ball
2. Kesmaning uzunligini topish va chizish	— 3 ball
3. Ko'paytmani topish	— 3 ball
4. Ifoda tuzish va qiymatini topish	— 3 ball
5. Raqamlarning to'g'ri yozilishi	— 1 ball
Jami	— 17 ball

Ushbu tekshiruv ishining har bir variantida 17 BKM elementi mavjud bo'lib, 14-MSTning SRB 17 balga teng.

B). 14-MSTga qo'shimcha topshiriq

1. Tekshiring, tengliklar to'g'rimi? 1) $5840:80=348-196$;
2) $438 \times 50 = 8906 + 9516$

14-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 6 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

Matematika fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTlar, 4-sinf, IV chorak

No	Mavzular	S\s	TI SRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Ko'p xonali son-larni bo'lish. 2 xonali songa bo'lish	1		761-764	765-766	
2.	4 xonali sonni 2 xonali songa bo'lish	1		767-771	772	
3.	Ko'p xonali sonni bo'lish	1		773-777	778-779	
4.	Sanash usuli bilan bo'lish	1		780-784	785-786	
5.	Masalalar yechish	1		787-790	791-792	
6.	Mustahkamlash	1		1-7	8	
7.	Mustahkamlash	1		9-14	15	

8.	Mustahkamlash	1		16-22	23	
9.	15-MSTI.	1	19			
10.	Qoldiqli bo'lish	1		793-796	797-798	
11.	Takrorlash	1		799-802	803-804	
12.	Hisobning qisqa yozuvi	1		805-808	809-810	
13.	Bo'lishda qulay usul	1		811-815	816-817	
14.	Bo'lish va tekshirish	1		818-822	823	
15.	2 xonali songa bo'lishni mustahkamlash	1		8240 827	828	
16.	Qoldiqli bo'lish	1		829-833	834	
17.	Masalalar yechish	1		835-839	840-241	
18.	Qoldiqli bo'lishni tekshirish	1		842-848	849	
19.	Tenglamalar tuzish	1		850-854	855-856	
20.	Masala va misollar yechish	1		-857-860	861-862	
21.	16-MSTI.	1	10			
22.	Ko'p xonali songa bo'lish	1		863-867	868	
23.	Takrorlash	1		868-873	874	
24.	Takrorlash	1		875-880	881	
25.	Mustahkamlash	1		882-891	892-993	
26.	Takrorlash	1		894-898	899	
27.	Takrorlash	1		1-9	10	
28.	Takrorlash	1		11-20	21-22	
29.	17-MSTI.	1	22			
30.	Takrorlash	1		1-9	10-	
31.	Uzunlik, yuz, massa	1		1-3	4	

32.	Qo'shish va ayirish	1		1-10	11-15	
33.	Ko'paytirish va bo'lish	1		1-9	10-12	
34.	Hamma o'tilganlarni takrorlash	1		1-4	5	
35.	Mustahkamlash	1		6-9	10	
36.	18-MSTI.	1	20			
37.	Mustahkamlash	1		16-21	22	
38.	Mustahkamlash	1		-	-	
39.	ko'p xonali sonlarni yozma ko'paytirish	1				
40.	Mustahkamlash	1		-	-	
	Jami	40	71	-	-	

**4-sinfda matematika fanidan IV chorak uchun BKM elementlari soni va standartli reyting baliarini hisobga olish jadvali
(haftasiga 5, chorakda 40 soat)**

MSTI tartib raqam	15-MSTI	16-MSTI	17-MSTI	18-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	9-dars	21-dars	29-dars	36-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Nazorat ishi	Matematik diktant	Nazorat ishi	Test	
Bajarish vaqti (minut)	40	25	40	45	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	19	10	22	20	71
Tekshiruv ishining standart bali	19	10	22	20	71
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	-4	-4	4	-	12

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda matematika fanidan IV chorak uchun 71 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 71 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 71 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 12 ball olish mumkin.

15-MSTI

Mavzu: Nazorat ishi.

Maqsad: Ko'p xonali sonlarni yozma ko'paytirish va bo'lish haqidagi bilimlarni tekshirish.

A). Nazorat ishi

1-qator

1. **Masala.** Bog'dan 3012 kg. olma terib olindi va ularning bir qismi 96 ta yashikka baravardan joylangandan keyin yana 324 kg. olma qoldi. Har bir yashikka qanchadan olma joylangan?

2. **Amallarni bajaring. Tekshiring.** $3070 \times 80 =$ $161426:20 =$

3. **Ifodaning qiymatini toping.** $947 + 6831:27 \times 2 =$

4. **To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.** Bo'yi-14 sm; eni-8 sm.

2-qator

1. **Masala.** Maktab kutubxonasida 985 ta va tuman kutubxonasida undan 20 marta ortiq kitob bor. Tuman kutubxonasidagi kitoblar maktab kutubxonasidagi kitoblardan nechta ortiq?

2. **Amallarni bajaring. Tekshiring.** $218400:2 =$ $91375:43 =$

3. **Ifodaning qiymatini toping.** $60200:700 + 9 \times 325 =$

4. **To'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.** Bo'yi-6 sm, eni 8 sm.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlar nomi va soni:

✓1. **Masala.**

a) Masalaning qisqa shartiga — 1 ball

2. Har bir amalning to'g'ri yechilishi uchun 1 balдан (2 amalli)

a) To'g'ri nomlash — 1 ball

✓3. Amallarni to'g'ri raqamlash 1 balдан (2ta raqam) — 2 ball

a) To'g'ri aks ettirilgan javob — 1 ball

✓4. Amallarni bajarish va tekshirish — 4 ball

✓5. Ifodaning qiymatini hisoblash, amallarning yechilishiga 1 balдан (3 amal) — 3 ball

6. Perimetr va yuzani topishiga — 4 ball

7. Raqamlarni to'g'ri va chiroyli yozishga — 1 ball

Ushbu tekshiruv ishida 19 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 15-MSTI-ning SRB 19 balga teng.

B). 15-MSTlga qo'shimcha topshiriq

1. Rebuslar . Kerakli raqamlarni qo'ying. 202-bet, 23-misol (2,3)

15-MSTining qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

16-MSTI ✓

Mavzu: Matematik diktant.

Maqsad: Yuz birliklari haqidagi bilimlarni tekshirish.

1. Kvadrat sm.larda ifodalang. $1 \text{ dm}^2 = \text{sm}^2$; $10 \text{ dm}^2 = \text{sm}^2$; $1 \text{ m}^2 = \text{sm}^2$
2. Kvadrat dm. larda ifodalang. $700 \text{ sm}^2 = \text{dm}^2$; $300 \text{ sm}^2 = \text{dm}^2$; $1000 \text{ sm}^2 = \text{dm}^2$.
3. Kvadrat metr larda ifodalang. $10000 \text{ sm}^2 = \text{m}^2$; $200 \text{ dm}^2 = \text{m}^2$; $400 \text{ dm}^2 = \text{m}^2$.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|---|------------------|
| 1. sm^2 da ifodalash 1 baldan (3 ta son) | — 3 ball |
| 2. dm^2 da ifodalash uchun 1 baldan (3 ta son) | — 3 ball |
| 3. m^2 da ifodalash uchun 1 baldan (3 ta son) | — 3 ball |
| 4. Raqamlarni to'g'ri va chiroyli yozish uchun | — 1 ball |
| Jami | — 10 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 16-MSTining SRB 10 balga teng.

B). 16-MSTlga qo'shimcha topshiriq

- 1). $30000 - 33 \text{ } 366 : 83 + 8 \text{ } 076 =$
- 2). $63 \text{ } 094 + 4 \text{ } 060 \times 84 - 6 \text{ } 285 =$

16-MSTining qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

17-MSTI

Mavzu: Nazorat ishi.

Maqsad: Ko'p xonali sonlarni ko'paytirish va bo'lish haqidagi bilimlarni tekshirish.

1-qator

1. *Masala.* Mexanizator paxta terish mashinasida bir kunda 6 tonna paxta terdi. Agar to'la bunker 250 kg. bo'lsa, mexanizator shu kuni necha bunker paxta to'kkan va 3 kunda necha bunker paxta to'kadi?

(6 tonna ni kg. larda ifodalang)

2. *Amallarni bajaring va tekshiring.* $8372 : 364 =$; $2370 \times 24 =$;
 $7552 : 472 =$; $4069 \times 72 =$

3. *Ifodaning qiymatini toping.* $10 \text{ } 920 : 39 + 608 \times 34 =$

4. *Tenglamani yeching va tekshiring.* $X : 13 = 26039$; $35 \times X = 140$;

2-qator ✓

1. *Masala.* Maktab ustaxonasiga oldin 15 ta, keyin 8 ta bolg'acha olindi. Keyingi safar avvalgidan 112 so'm kam pul to'landi. Bitta bolg'acha qancha turadi?

2. *Amallarni bajaring va tekshiring:* $257\ 856:632=$; $1435 \times 22 =$;
 $769\ 704:312=$; $6124 \times 36 =$

3. *Ifodaning qiymatini toping.* $482 \times 205 - 69907 =$

4. *Tenglamani yeching va tekshring.* $828 : x = 23$; $x + 479 = 678$;

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. *Masala*

1. *Masalaning qisqa shartiga* — 1 ball

a) Har bir amalning to'g'ri yechilishi uchun

(1 baldan 2 amal) — 2 ball

b) To'g'ri nomlash uchun — 1 ball

d) Amallarni to'g'ri raqamlash — 1 ball

e) To'g'ri aks ettirilgan javob uchun — 1 ball

2. *Amallarni bajaring*

a) Bo'linmani topishga va tekshirishga — 4 ball

b) Ko'paytmani topishga va tekshirishga — 4 ball

3. *Ifodaning qiymatini topishga 1 baldan (3 amal)* — 3 ball

4. *Tenglamani yeching:*

a) Noma'lum bo'luvchini topishga — 2 ball

b) Noma'lum ko'paytuvchini topishga — 2 ball

5. *Raqamlarning to'g'ri va chiroyli yozilishiga* — 1 ball

Jami — 22 ball

Ushbu tekshiruv ishida 22 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 17-MSTIning SRB 22 balga teng.

B). 17-MSTiga qo'shimcha topshiriq

1. *Ifodaning qiymatini toping.* $800\ 100 - 460 \times 307 + 83\ 842:206 =$

17-MSTIning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

18-MSTI

Mavzu: Yakuniy test.

Maqsad: O'quvchilarning yil davomida olgan bilimlarini tekshirish.

1. *16 m. da necha sm. bor?*

a) 160 sm; b) 1600 sm; d) 1600 sm.

2. *2 soatda necha minut bor?*

a) 120 min. b) 1200 min. d) 12000 min.

3. *$X \times 6 = 48$ tenglamadan noma'lum ko'paytuvchini toping.*

a) 9; b) 7; d) 8.

4. Ifodaning qiymatini toping. $25 \times 100 =$
 a) 2500; b) 25000; d) 250.
5. $38 \times 100 + 255 =$ ifodaning qiymatini toping
 a) 4055; b) 4050; d) 4005.
6. Kvadrat sm. larda ifodalang. $1 \text{ dm}^2 = ?$
 a) 1000 sm^2 ; b) 10000 sm^2 ; c) 100 sm^2 .
7. 1 asr necha yil?
 a) 200 yil; b) 10 yil; d) 100 yil
8. m^2 bilan ifodalang. $1 \text{ km}^2 = ?$
 a) 1000 000 m^2 ; b) 100000 m^2 ; c) 10000 m^2 .
9. Ko'paytmani toping. $27 \times 35 = ?$
 a) 940; b) 942; c) 945.
10. Ishchi 1 detalni 15 minutda tayyorlaydi. 16 ta detalni tayyorlash uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?
 a) 240 min.; b) 200 min.; d) 140 min.
11. $63 \times 54 = ?$ Ko'paytmani toping
 a) 3401; b) 3402; d) 3400.
12. Shuhrat 5 ta va Muxtor 3 ta bir xil daftar sotib oldi. Qaysinisi ko'p pul to'lashi kerak?
 a) Shuhrat; b) Muxtor; d) ikkalasi.
13. $387 \times 345 =$ ko'paytmani toping
 a) 133515; b) 133514; d) 133500.
14. Akasi 15 yoshda, singlisi 3 marta kichik. Singlisi necha yoshda?
 a) 3 yoshda; b) 4 yoshda; d) 5 yoshda.
15. Kvadratning yuzi 81 sm^2 . Uning tomonlari uzunligini toping.
 a) 81 sm^2 ; b) 9 sm.; d) 8 sm.
16. To'g'ri to'rtburchakning yuzi 36 sm^2 , eni 4 sm. Bo'yini toping.
 a) 5 sm.; b) 9 sm.; d) 8 sm.
17. 10000 sonidan 10 marta kichik sonni o'ylab toping?
 a) 1000; b) 100; d) 10.
18. 180 sonidan 100 marta katta sonni toping.
 a) 18000; b) 1800; d) 180000.
19. $280 + x = 420$. Noma'lum qoshiluvchini toping.
 a) 130; b) 140; d) 145.
20. Tomonlari 3 sm, 2 sm, 2 sm bo'lgan uchburchakning perimetrini toping.
 a) 7 sm.; b) 12 sm.; d) 13 sm.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 20 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 20 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 18-MSTning SRB 20 balga teng.

TABIATSHUNOSLIK

**4-sinfda tabiatshunoslik fanidan o'quv yili uchun o'quvchilar
bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda SRBni
hisobga olish jadvali
(haftasiga 1, yiliga 34 soat)**

Choraklar	I	II	III	IV	Yillik
MSTI soni	2	2	3	2	9
BKM elementlari soni	80	80	100	50	310
BKM elementlari soni	20	38	48	38	144
Tekshiruv ishining standart reyting bali	20	38	48	38	144
Qo'shimcha topshiriq bali	8	5	8	5	26

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda tabiatshunoslik fanidan o'quv yili uchun 144 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Yillik standart reyting bali 144 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 144 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 26 ball olish mumkin.

Tabiatshunoslik fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTilar, 4-sinf, I chorak

№	Mavzular	S/s	TI SRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Kirish.Tabiatni kuzatish.	1		3-14 b.		
2.	Gorizont va gorizont chizig'i	1		15-24		
3.	Plan va karta	1		24-32		
4.	1-MSTI. Raqamli diktant	1	10			

5.	Geografik karta	1		35-39		
6.	Globus — yerning kichraytirilgan nusxasi	1		40-46		
7.	Yerning harakati	1		47-56		
8.	2-MSTI. Rasmi diktant	1	10			
9.	Mustahkamlash	1				
	Jami	9	20			

4-sinfda tabiatshunoslik fanidan I chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali (haftasiga 1, chorakda 9 soat)

Majburiy standartli	1-MSTI	2-MSTI	SCHRB
MSTI o'tkazish muddati	4-dars	8-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Raqamli diktant	Rasmi diktant	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	10	10	20
Tekshiruv ishining standart bali	10	10	20
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	4	4	8

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda tabiatshunoslik fanidan I chorak uchun 20 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 20 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 20 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 8 ball olish mumkin.

1-MSTI

Mavzu: Vatanimiz tabiati."Joyda oriyentr olish".

Maqsad: O'quvchilarning joyda oriyentr olish va gorizont tomonlarini bilish bo'yicha bilimlarini aniqlash.

A). Raqamli diktant

- ✓1. Gorizont nima?
- 2. Gorizont so'zining ma'nosi nima?
- ✓3. Gorizont chizig'i nima?
- ✓4. Gorizont tomonlarining nomini ayting.
- ✓5. Quyosh qaysi tomondan chiqadi?
- ✓6. Oriyentr olish deb nimaga aytiladi?
- ✓7. Gorizont tomonlarini nimalarga qarab aniqlash mumkin?
- 8. Tepaliklarda tomonlar qanday aniqlanadi?
- ✓9. Kompas nima?
- ✓10. Kompas strelkasining ko'k rangga bo'yalgan qismi qaysi tomonni ko'rsatadi?

Berilgan savollarga to'g'ri javob raqamlarini toping.

- 1. Joyda gorizont tomonlarini topa bilish.
- 2. Osmon bilan yer tutashgan joy. 3
- 3. Janub tomondagi qor tezroq eriydi.
- 4. Shimolni ko'rsatib turadi. 10
- 5. Yer yuzining ko'rinib turgan qismi. 1
- 6. Qutb yulduziga, daraxtlarga, to'ntaklarga va tepaliklarga. 2
- 7. Chegara (ufq).
- 8. Gorizont tomonlarini o'lchaydigan asbob. y
- 9. Sharqdan. 5
- 10. Shimol, janub, sharq, g'arb. 10 4

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 10 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 1-MSTning SRB 10 balga teng.

B). 1-MSTiga qo'shimcha topshiriq

- 1. Kompas rasmini chizing.

1-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

2-MSTI

Mavzu: Rasmi diktant. Joyning planini tuzishi. Topografik plan.

Maqsad: O'quvchilarning topografik plan shartli belgilarini aniqlashdagi bilimlarini tekshirish.

(O'qituvchi rasmiy kartochkalar orqali belgilarni ko'rsatadi, o'quvchilar nomlarini yozadilar)

- | | |
|----------------------|------------------------|
| 1. Shahar | 6. Paxta dalasi |
| 2. Telegraf tarmog'i | 7. Mevali bog' |
| 3. Jilg'a | 8. Yakka turgan daraxt |
| 4. Yog'ochli ko'pri | 9. Jarlik |
| 5. Botqoq | 10. Poliz, ekinzor. |

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball.

Jami — 10 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 10 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 2-MSTI-ning SRB 10 balga teng.

B). 2-MSTIga qo'shimcha topshiriq

Sinf planini chizing.

2-MSTIning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

Tabiatshunoslik fanidan kalendar mavzuviy ish reja va MSTilar, 4-sinf, II chorak

№	Mavzular	S/s	TI SRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Jonajon o'lkamiz-O'zbekiston	1		57—66		
2.	Tog'lar	1		66-73		
3.	O'lkamizda suv havzalari	1		74-80		
4.	3-MSTI. Suv havzalarining o'simliklari va hayvonlari	1	18	80-93		
5.	Cho'llar	1		95-104		
6.	Cho'l o'simlik va hayvonlari	1		105-125		
7.	4-MSTI	1	20			
	Jami	7	38			

4-sinfda tabiatshunoslik fanidan II chorak uchun BKM elementlari soni va SRBni hisobga olish jadvali (haftasiga 1, chorakda 7 soat)

MSTI tartib raqami	3-MSTI	4-MSTI	SCHRB
MSTI o'tkazish muddati	4-dars	8-dars	
Bajarish vaqti (minut)	40 daqiqa	40 daqiqa	
MSTI o'tkazish shakli	Raqamli diktant	Rasmi diktant	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	18	20	38
Tekshiruv ishining standart bali	18	20	38
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	5	-	5

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda tabiatshunoslik fanidan II chorak uchun 38 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 38 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 38 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 5 ball olish mumkin.

3-MSTI

Mavzu: Raqamli diktant.

Maqsad: "Globus -- yerning modeli" mavzusi asosida o'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish.

A). Diktant matni

1. Tinch;
2. Yeroosiyo ;
3. Oy;
4. Bruno;
5. Yer;
6. Kopernik;
7. Amerika;
8. Antarktida;
9. Zuhra;
10. Beruniy;
11. Ulug'bek;
12. Mars;
13. Shimoliy muz;
14. Afrika;
15. Hind;
16. Galiley;
17. Avstraliya;
18. Atlantika.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|----------------------------------|------------------|
| 1.Okeanlar:1,13,15,18 | 1x4 — 4 ball |
| 2.Qit'alar:2,7,8,14,17 | 1x5 — 5 ball |
| 3.Planetalar: 3,5,9,12 | 1x4 — 4 ball |
| 4.Astronom olimlar: 4,6,10,11,15 | 1x5 — 5 ball |
| Jami | — 18 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 18 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 3-MSTning SRB 18 balga teng.

B). 3-MSTlga qo'shimcha topshiriq

Mintaqalarning nomini yozing.

3-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 5 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

4-MSTI

Mavzu: Yakuniy test sinovi.

Maqsad: "Jonajon o'lkamiz", "Globus — yerning modeli" mavzulari bo'yicha o'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish.

A). Test sinovi

1. *Globus nima?*

a) yerning kattartirilgan qismi; b) yerning kichraytirilgan nusxasi; d) yer yuzidagi narsalarning rasmi.

2. *Quyosh nima?*

a) planetalardan biri; b) yerga yaqin turgan yulduz; d) eng yorug' yulduz.

3. *Oy nima?*

a) yerning yo'ldoshi; b) yulduz; d) yerning kichraytirilgan qismi.

4. *Quyosh necha darajagacha qiziydi?*

a) 1000°; b) 5000°; d) 6000°.

5. *Yer bilan quyoshning oraliq'idagi masofa necha km ?*

a) 250 mln.km; b) 150 mln.km; d) 300 mln.km.

6. *Nima uchun yerda fasllar almashib turadi?*

a) yer quyosh atrofida aylanadi va uning o'qi yotiq bo'ladi;

b) chunki yer o'z o'qi atrofida aylanadi;

d) quyosh Yer atrofida aylanadi.

7. *Bir yil necha kundan iborat?*

a) 360,365; b) 365,366; d) 367,368.

8. *Respublikamizda nechta viloyat bor?*

a) 12; b) 13; d) 11.

9. *Yerning suniy yo'ldoshi nima?*

a) mars va yer; b) quyosh va oy; d) inson qo'li bilan yaratilgan yo'ldosh.

10. *O'zbekistonning maydoni necha km².*

a) 447,4 ming km²; b) 457 ming km²; d) 460 ming km².

11. *Cho'lda qaysi hayvon yashaydi?*

a) toshbaqa; b) qurbaqa; d) timsoh.

12. Adir nima?

a) tog' etaklari; b) vodiylar; d) o'rmon etaklari.

13. Cho'qqi nima?

a) tog'ning etagi; b) tog'ning ko'tarilgan baland qismi; d) tog'ning ko'rinish turgan qismi.

14. O'zbekistondagi dengiz nomi nima?

a) Orol; b) Boltiq; d) Aydarko'l.

15. Siz qaysi viloyatda yashaysiz?

a) Surxondaryo; b) Qashqadaryo; d) Sirdaryo.

16. Yer ostidan sizib chiqadigan suv qanday nomlanadi?

a) irmoq; b) buloq; d) ko'l.

17. Yerning qum bilan qoplangan qismi nima ?

a) tekislik; b) cho'l; d) barxanlar.

18. Tog' tizmalari orasidagi pastliklar nima deb ataladi?

a) vodiylar; b) daralar; d) dovon.

19. Siz yashayotgan viloyatning markazi qaysi shahar?

a) Toshkent; b) Guliston; d) Sirdaryo.

20. Cho'lda o'sadigan erta bahorgi gullarning nomi nima?

a) lola, lolaqizg'aldoq; b) saksovul, yantoq; d) shuvoq, lola.

Ushbu tekshiruv ishida 20 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 4-MSTning SRB 20 balga teng.

**Tabiatshunoslik fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTlar,
4-sinf, III chorak**

No	Mavzular	S/s	TI SRB	Sinf ishi	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Tog'lar tabiati	1				
2.	Tog' o'rmonlari va o'tloqlari	1 1				
3.	Kavkaz va Qrimning go'zal dengiz sohili	1 1				
4.	5-MSTI. Test	1	24			
5.	Dasht zonasi	1				
6.	O'rmon zonasi	1				
7.	O'rmon zonasi aholi-sining mashg'uloti	1 1				
8.	6-MSTI. Test	1				

9.	Tundraning tabiati	1				
10.	Shimol bug'ulari	1				
11.	7-MSTI. Raqamli diktant	1				
12.	Muzliklar zonasi	1				
	Jami	10	48			

**4-sinfda tabiatshunoslik fanidan III chorak uchun BKM
elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali
(haftasiga 1, chorakda 10 soat)**

MSTI tartib raqami	5-MSTI	6-MSTI	7-MSTI	ChSRB
MSTI o'tkazish muddati	4- dars	7- dars	9- dars	
MSTI o'tkazish shakli	Test	Test	Raqamli diktant	
Bajarish vaqti (minut)	20	40	40	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	12	12	24	48
Tekshiruv ishining standart bali	12	12	24	48
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	4	—	4	8

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda tabiatshunoslik fanidan III chorak uchun 48 ta asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 48 ta asosiy BKM elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 48 balga teng.

Bundan tashqari, MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkabli qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 8 ball olish mumkin.

5-MSTI

Mavzu: Tog' zonasi. Test sinovi.

Maqsad: O'quvchilar bilimini aniqlash.

A). Test topshirig'i

1. Tog' o'simliklarini toping.

a) uzum, olxo'ri; b) archa, qayin; d) qovun, tarvuz.

2. Tog' o'rmonida qanday hayvonlar yashaydi?

a) to'ng'iz, kiyik, ayiq; b) ot, echki; d) tuya, qo'y.

3. Tog'lardagi bog'larni nimalar bunyod etgan?

a) odamlar; b) qushlar, hayvonlar; d) traktorlar.

4. Tog'larda qanday qushlar yashaydi?

a) zarg'aldoq, qizilishton, boyqush, mayna; b) turna, bedana; d) laylak, kurka.

5. Tog' o'tloqlarida nimalar boqiladi?

a) quyonlar, kakliklar; b) tuyalar, maymunlar; d) qo'y, echki, yilqi.

6. Toqqa ko'tarilgan sayin tabiat qay tariqa o'zgarib boradi?

a) isiydi; b) sovuydi; d) muzlaydi.

7. Tog' o'rmonida qanday mevali o'simliklar o'sadi?

a) anor, qovun; b) olma, tog'olcha, yong'oq; d) tarvuz, nok.

8. Qaysi qush to'g'risida ertaklar, afsonalar to'qilgan?

a) bulbul; b) ko'kqush; d) chumchuq.

9. Qo'ng'ir ayiq qayerda yashaydi?

a) bog'da; b) tog'da; d) cho'lda.

10. Nima uchun tog'larda dam olish maskanlari ko'p?

a) daraxtlari uchun; b) toza havo, tiniq suvlar uchun; d) tinchligi uchun.

11. Kaklik qayerda yashaydi?

a) tog' yon bag'rida; b) cho'lda; d) suvda.

12. Qaysi hayvon tog'da bermalol sakrab yuradi?

a) tuya; b) eshak; d) tog' qo'yi.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 balidan.

Jami — 12 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 12 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 5-MSTI-ning SRB 12 balga teng.

B). 5-MSTIga qo'shimcha topshiriq

Tog' aholisining mashg'ulotlarini yozing.

4 ball.

5-MSTining qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

✓ **6-MSTI**

Mavzu: Dasht tabiati. Test sinovi.

Maqsad: O'quvchilar bilimni aniqlash.

A). Test topshirig'i

1. *Dasht zonasining tuprog'i qanday?*
a) unumdor qora tuproq; b) gil tuproq; d) sho'r tuproq.
2. *Dashtlarda qanday hayvonlar yashaydi?*
a) kuchuk, mushuk; b) sichqon, yumronqoziq; d) sigir, qo'y.
3. *Dashtda qanday qushlar yashaydi?*
a) qarg'a, mayna; b) bedana, kaklik; d) chumchuq, musicha.
4. *Dashtlarda ko'llar uchraydimi?*
a) ha; b) yo'q; d) bilmayman.
5. *Dashtda qanday uy hayvonlari boqiladi?*
a) sher, tulki, bo'ri; b) ayiq, yo'lbars; d) sigir, qo'y.
6. *Dasht zonasida qanday madaniy o'simliklar ekiladi?*
a) sho'ra, ajriq; b) bug'doy, kungaboqar, makka; d) g'umay, yantoq.
7. *Qanday daraxtlar ninabargli daraxt?*
a) archa, qarag'ay, kedr; b) yong'oq, terak; d) sada, qayin.
8. *O'rmonda qanday hayvonlar uchraydi?*
a) it, echki; b) olmaxon, sabo'l, los, silovsin; d) sigir, qo'y, eshak.
9. *O'rmon zonasida qanday madaniy o'simliklar o'sadi?*
a) zig'ir, javdar, bug'doy; b) sholi, makka; d) paxta, mosh.
10. *O'rmon zonasida qanday uy hayvonlari boqiladi?*
a) arslon, bo'ri; b) qo'y, sigir; d) yo'lbars, kiyik.
11. *O'rmon zonasida qanday yirik shaharlar joylashgan?*
a) Toshkent, Samarqand; b) Sirdaryo, Buxoro; d) Moskva, Novosibirsk, Vladivostok.
12. *Tayga o'rmonlarida qanday janub o'simliklari o'sadi?*
a) baxmal daraxt, limon daraxt; b) tut, terak; d) chinor, qayin.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 baldan.

Jami — 12 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 12 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 6-MSTning SRB 12 balga teng.

7-MSTI

Mavzu: Yakuniy raqamli diktant.

Maqsad: O'quvchilarning mavzular bo'yicha olgan bilimlarini aniqlash. Doskada yoki jadvalda tabiat zonalarini o'qituvchi raqamlar bilan belgilab chiqadi. Shu xonalarga mos hayvonlar va o'simliklarni aytadi.

A). Raqamli diktant

- | | | |
|----------------------|---------------------|--------------|
| 1. Qulon | 12. Shimol bug'usi; | 23. Yo'lbars |
| 2. Zig'ir | 13. Burgut; | 24. Yantoq |
| 3. Qutb qizg'aldog'i | 14. Kungaboqar | |

- | | |
|---------------------|---------------------------|
| 4. Mavzak (shalviy) | 15. Yagil (bug'i yo'sini) |
| 5. Choy | 16. Saksovul |
| 6. Sho'ra | 17. Qand lavlagi |
| 7. Lavr | 18. Yumronqoziq |
| 8. Silovsin | 19. Los |
| 9. Palma | 20. Sayg'oq |
| 10. Kedr | 21. Apelsin, mandarin |
| 11. Magnoliya | 22. Grechka |

Savollar:

1. Tundra 3, 12, 15
2. O'rmon 2, 8, 10, 19, 23, 22
3. Dasht 4, 6, 14, 17, 20
4. Cho'l 1, 13, 16, 18, 24
5. Subtropik 5, 7, 9, 11, 21

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 balidan.
Jami — 24 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 24 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 7-MSTning SRB 24 balga teng.

B). 7-MSTiga qo'shimcha topshiriq

Dashtda kishilar nima bilan shug'illanadilar? 4 ball.

7-MSTning qo'shimcha topshirig'i uchun 4 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

**Tabiatshunoslik fanidan kalendar mavzuiy ish
reja va MSTilar, 4-sinf, IV chorak**

№	Mavzular	S/s	Sinf ishi	Uyga vazifa	TISRB	Eslatma
1.	Tundra va abadiy muzliklar zonasi	1	181-184	181-184		
2.	Tundra aholisining mashg'uloti	1	190-195	190-195		
3.	8-MSTI	1			18	
4.	Foydali qazilmalar Mis.Temir	1	201-209	120-209		

5.	Tabiat va inson	1	209-215	209-215		
6.	Jonsiz tabiat — hayotning asosi	1	215-226	215-226		
7.	9-MSTI	1			20	
8.	Qo'riqxonalar	1	226-235	226-235		
	Jami	8			38	

**4-sinfda tabiatshunoslik fanidan IV chorak uchun BKM
elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali
(haftasiga 1, chorakda 8 soat)**

MSTI tartib raqami	8-MSTI	9-MSTI	SHSRB
MSTI o'tkazish muddati	3- dars	7-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Raqamli diktant	Test	
Bajarish vaqti (minut)	20	30	
Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari soni	18	20	38
Tekshiruv ishining standart bali	18	20	38
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)	5	-	5

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda tabiatshunoslik fanidan IV chorak uchun 38 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 38 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 38 balga teng.

Bundan tashqari MSTI to'plamida berilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha 5 ball olish mumkin.

8-MSTI

Mavzu: Raqamli diktant.

Maqsad: Tundra va abadiy muzliklar zonasi haqida bilim va malakalarini tekshirish.

A) Raqamli diktant

- | | |
|----------------------|-------------------|
| 1. Limming | 2. O'rdak |
| 3. Qutb qizg'aldog'i | 4. Loyxo'rak |
| 5. Golubika | 6. Shimol tulkisi |

- | | |
|------------------------|-------------------------|
| 7. Oqqush | 8. Kupalnitka |
| 9. Brusnika | 10. Qizil tomoq kazarka |
| 11. Jarka | 12. Shimol bug'usi |
| 13. Oqsuvsar | 14. Oq quyruq lochin |
| 15. Maroshka | 16. Lochin |
| 17. Qora tomoq gargara | 18. Oq boyo'g'li |

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|---|-------------------|
| 1. Tundra gullari; 8, 11, 3. | — 3 ball |
| 2. Tundra mevasis mazali o'simliklar; 15, 5, 9. | — 3 ball |
| 3. Tundra hayvonlari; 13, 1, 6, 12. | — 4 ball |
| 4. Tundra qushlari; 2, 4, 7, 17, 10 | — 5 ball |
| 5. Tundra yirtqich qushlari; 18, 16, 14 | — 3 ball |
| Jami | — 18 balli |

Ushbu tekshiruv ishida 18 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 8-MSTI-ning SRB 18 balga teng.

B). 8-MSTIga qo'shimcha topshiriq

Mis rudasi qayerlardan qazib olinadi — 5 ball.

8-MSTIning qo'shimcha topshirig'i uchun 5 ta qo'shimcha ball (QB) qo'yiladi.

9-MSTI

Mavzu: Yakuniy test sinovi.

Maqsad: Bolalarning chorak va yil davomida olgan bilimlarini tekshirish.

A). Test sinovi

- Globus nima?*
a) yerning kattalashtirilgan qismi; b) yerning kichiklashtirilgan nusxasi; d). yer yuzidagi narsalarning rasml.
- Quyosh nima?*
a) planetalardan biri; b) yerni isituvchi narsa; d) olovli shar.
- Kompas nima?*
a) tomonlarni aniqlaydigan asbob; b) planetalardan biri; d) gorizont chizig'i
- Gorizontning nechta asosiy tomoni bor?*
a) 3 ta; b) 6 ta; d) 4 ta.
- Hayotning, ya'ni tabiatning nechta belgisi bor?*
a) 5 ta; b). 4 ta; d) 3 ta.
- Suv havzasining o'simliklari qatorini toping.*
a) Qumquyoq, yaltirbosh; b) qo'g'a, shoxbarg, urut; d). bodom, yong'och, archa.
- Yerdagi eng quruq o'lka qaysi?*
a) dasht; b) cho'l; d) o'rmon.
- Cho'llarda ob-havo nechta gradusgacha isiydi?*

a) 50; b) 60; d) 80.

9. Yantoq, juzg'un, saksovul nima uchun o'ta qurg'oqchilik bo'lsa ham qurimaydi?

a) Ularning tomiri uzun bo'ladi, tomiri yer osti suvida turadi;

b) chidamli bo'lgani uchun; d) tomiri uzun bo'lgani uchun.

10. Nima uchun tog'dagi barcha mevalarni yeyish, gullarni hidlash mumkin emas?

a) begona joy bo'lgani uchun; b) zararilari ham bor; d) so'rash kerak.

11. Subtropik zonasida o'sadigan o'simliklar qatorini toping.

a) palma, magnoliya, lavr, bambuk, kiparis, evkalipt, choy o'simligi;

b) archa, do'lana, pista; d) chakaming, chalov, marmarak.

12. O'rmonda qanday shifobaxsh o'tlar o'sadi?

a) sariqchoy, marvaridgul, tuyoqo't, asalo't, nilufar; b) archa, uchqat, o'rmon yong'og'i; d) yertut, qo'zoqorin.

13. O'rmon hayvonlariga nimalar kiradi?

a) olmaxon, sobol, los, silovsin, qunduz; b) jayra, bo'rsiq; d). tuya, yumronqoziq.

14. O'rmon zonasida yashovchi aholi nima bilan shug'ullanadi?

a) ovchilik bilan; b) dehqonchilik bilan; d) har ikkisi.

15. O'rmon zonasi dalalarida nimalar yetishtiriladi?

a) javdar, zig'ir, bug'doy, arpa, no'xat; b) paxta, kungaboqar;

d). makkajo'xori, bug'doy.

16. Tundrada qish necha oy bo'ladi?

a) 8-9 oyga cho'ziladi; b) 2-3 oy; d) 5 oyga cho'ziladi.

17. Tundra aholisining asosiy mashg'uloti nima?

a). dehqonchilik; b) ovchilik; d) bug'uchilik.

18. Tundrada transport sifatida qaysi hayvonlardan foydalaniladi?

a) it, bug'u; b) ot; d). eshak.

19. Jonli tabiat qismlariga nimalar kiradi?

a) odamlar, o'simliklar, hayvonlar, daraxtlar; b) yer, toshlar d). tog'lar;

20. Qishida ham yozda, bir xil kiyimda.

a) olma; b) archa; d) qarag'ay.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

Har bir to'g'ri javob uchun 1 balidan.

Jami — 20 ball.

Ushbu tekshiruv ishida 20 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 9-MSTI-ning SRB 20 balga teng.

9-MSTIning test kaliti (tabiat)

1-b 6-b 11-a 16-a

2-a 7-b 12-a 17-d

3-a 8-d 13-a 18-a

4-d 9-a 14-a 19-a

5-a 10-b 15-a 20-b

MEHNAT

4-sinfda mehnat fanidan o'quv yili uchun o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda SRBni hisobga olish jadvali (haftasiga 1, yiliga 34 soat)

Choraklar	I	II	III	IV	Yillik
MSTI soni	2	2	3	2	9
O'tkazish vaqti (minut)	80	80	120	80	360
BKM elementlari soni	24	18	27	18	87
Tekshiruv ishining standart reyting bali	28	27	42	27	124
Qo'shimcha topshiriq bali					

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda mehnat fanidan o'quv yili uchun 87 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Yilik standart reyting bali 87 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 87 balga teng.

Bundan tashqari, o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan va MSTI to'plamiga kiritilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha ball olishi mumkin.

Mehnat fanidan kalendar mavzuiy ish reja va MSTilar, 4-sinf, I chorak

No	Mavzular	S/s	Ti SRB	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Yozgi ishlar haqida suhbat	1			
2.	Mustaqil ravishda to'rtburchak ichida naqsh solish	1			
3.	Doira ichida naqsh chizish	1			
4.	1-MSTI. Naqsh chizish	1	13		
5.	Loydan choynak yasash	1			

6.	Ranglar mavzusida suhbat	1			
7.	Rangli qog'ozdan gullar yasash	1			
8	Mustahkamlash	1			
9	2-MSTI. Gul yasash	1	15		
	Jami	9	28		

**4-sinfda mehnat fanidan I chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali
(haftasiga 1, chorakda 9 soat)**

MSTI tartib raqami	1-MSTI	2-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	2 -dars	6 -dars	
MSTI o'tkazish shakli	Gul yasash	Naqsh solish	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	
BKM elementlari soni	10	14	24
Tekshiruv ishining standart bali	13	15	28
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)			

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda mehnat fanidan I chorak uchun 24 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting bali 24 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 28 balga teng.

Bundan tashqari, o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan va MSTI to'plamiga kiritilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha ball olishi mumkin.

1-MSTI

Mavzu: To'g'ri to'rtburchak shaklidagi so'zana naqshi.

Maqsad: O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish.

A). Naqsh chizish

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Ish joyi va qurollari (qaychi, igna, har xil rangdagi iplar, gazlama, qalam, chizg'ich va boshqalar)ning to'liqligi
— 2 ball

(kamchiliklarning mavjudligi – 1 b)	
2. Gazlamaga naqshning to'g'ri tushirilishi	— 3 ball
(kamchiliklarning mavjudligi – 1 b)	
3. Ranglar va iplarni to'g'ri tanlash	— 2 ball
(kamchiliklarning mavjudligi – 1 b)	
4. Ishidagi fantaziya	— 1 ball
5. San'atning "Naqsh" turini to'g'ri va to'liq bajarish	— 3 ball
6. Ishning toza va estetik bezalishi	— 2 ball
Jami	— 13 ball

Ushbu tekshiruv ishida 110 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 1-MSTI-ning SRB 13 balga teng.

2-MSTI

Mavzu: Kuzgi gullarga qarab doniardan gul yasash.

Maqsad: Jivopis va applikasiya texnikasida o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikmalakalarini aniqlash.

A). Gul yasash

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. "Arxitektura" san'atidagi turlarni aniqlash	— 1 ball
2. Kompozitsion jihatdan mavzuni to'g'ri yoritib olish	— 1 ball
3. Tasvirni to'g'ri chizish va joylashtirish	— 3 ball
4. Qaychi bilan ichlash :	
a) chiziqlarni kesish	— 1 ball
b) to'g'ri burchak shaklidagi figuralarni qirqib olish	— 1 ball
d) mayda detallarni kesish	— 1 ball
e) saranjomlik bilan bajarish	— 1 ball
f) xavfsizlik texnikasiga rioya qilish	— 1 ball
5. Ranglardan to'g'ri foydalanish	— 2 ball
6. Bo'yoq va mo'yqalamdan to'g'ri foydalanish	— 2 ball
7. Ishning toza va estetik holati	— 1 ball
Jami	— 15 ball

Ushbu tekshiruv ishida 14 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 2-MSTI-ning SRB 15 balga teng.

**Mehnat fanidan kalendar mavzuviy ish reja va MSTilar,
4 sinf, II chorak**

No	Mavzular	S/s	TI SRB	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Dasturxondagi sabzavotlar	1			
2.	So'zana	1			
3.	Gilamdagi naqshlar	1			
4.	3-MSTI. Sandiq yasash	1	12		
5.	Elektr asboblari bilan ishlash	1			
6.	Qshxona jihozlari	1			
7.	4-MSTI. Archa bezaklari	1	15		
8.	Qorbobo ustaxonasida	1			
	Jami	8	27		

**4-sinfda mehnat fanidan II chorak uchun BKM elementlari soni va standart reyting balini hisobga olish jadvali.
(haftasiga 1, chorakda 8 soat)**

MSTI tartib raqami	3-MSTI	4-MSTI	CHSRB
MSTI o'tkazish muddati	4-dars	7-dars	
MSTI o'tkazish shakli	Sandiq yasash	Archa bez.	
Bajarish vaqti (minut)	40	40	
BKM elementlari soni	9	9	18
Tekshiruv ishining standart bali	12	15	27
Qo'shimcha topshiriq bali (QB)			

Dastur materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 4-sinfda mehnat fanidan II chorak uchun 18 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlari mavjud. Choraklik standart reyting ball 18 asosiy bilim, ko'nikma va malaka elementlariga mos kelgan holda qo'yilib, standart reyting bali 27 balga teng.

Bundan tashqari, o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan va MSTI to'plamiga

kiritilgan yuqori murakkab qo'shimcha topshiriqni bajarganligi uchun qo'shimcha ball olishi mumkin.

3-MSTI

Mavzu: Sandiq yasash.

Maqsad: Qquvchilardagi milliy hunarmandchilikka bo'lgan layoqatni tekshirish.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Ish joyi va qurollari (qaychi, karton, yelim, qalam, chizg'ich va boshqalar)ning to'liqligi
(kamchiliklarning mavjudligi — 1b) | — 2 ball |
| 2. Sandiqni to'g'ri yasash
(kamchiliklarning mavjudligi — 1b) | — 2 ball |
| 3. Qog'ozlarni to'g'ri tanlash
(kamchiliklarning mavjudligi — 1b) | — 2 ball |
| 4. Ishidagi fantaziya | — 1 ball |
| 5. Sandiqni to'g'ri va to'liq bajarish | — 3 ball |
| 6. Ishning toza va estetik bezalishi | — 2 ball |
| Jami | — 12 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 9 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 3-MSTning SRB 12 balga teng.

4-MSTI

Mavzu: Archa bezaklari.

Maqsad: O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish.

Tekshirilishi lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

- | | |
|--|------------------|
| 1. Ish joyi va qurollari (qaychi, karton, yelim, qalam, chizg'ich, rangli qog'ozlar va boshqalar)ning to'liqligi
(kamchiliklarning mavjudligi — 1b) | — 3 ball |
| 2. Archa bezaklarini to'g'ri yasash
(kamchiliklarning mavjudligi — 1b) | — 3 ball |
| 3. Qog'ozlarni to'g'ri tanlash
(kamchiliklarning mavjudligi — 1b) | — 2 ball |
| 4. Ishidagi fantaziya | — 1 ball |
| 5. Ishni to'g'ri va to'liq bajarish | — 3 ball |
| 6. Ishning toza va estetik bezalishi | — 3 ball |
| Jami | — 15 ball |

Ushbu tekshiruv ishida 9 ta BKM elementi mavjud bo'lib, 4-MSTning SRB 15 balga teng.

**Mehnat fanidan kalendar mavzuly ish reja va MSTilar,
4-sinf, III chorak**

No	Mavzular	S/s	TI SRB	Uyga vazifa	Eslatma
1.	Odam figurasini yasash	1			
2.	Odam figurasini yasash	1			
